

**O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta
maxsus ta'lif vazirligi
Davlat Soliq qo'mitasi
Soliq Akademiyasi**

N. OBLOMURADOV, X. ALIKULOV

**«FALSAFA»
FANIDAN
O'QUV QO'LLANMA
(bakalavriat bosqichi barcha yo'nalishlar uchun)**

TOSHKENT – 2008

N. Oblomuradov, X. Alikulov.
«Falsafa» fanidan o'quv qo'llanma (bakalavriat bosqichi barcha yo'naliishlar talabalari uchun):**O'quv qo'llanma** -T.: Soliq akademiyasi. 2008. 215-bet.

«Falsafa» fanidan tajriba-sinov o'quv qo'llanmasi, Soliq akademiyasi «Ijtimoiy-gumanitar fanlar» kafedrasida tayyorlangan. Ushbu majmua o'quv uslubiy va ma'lumotli hujjatlardan iborat bo'lib, talabalarning ma'ruza va amaliy mashg'ulotlarni mustaqil o'rganishi bo'yicha o'zlashtirish sifatini oshirishiga xizmat qiladi. O'quv qo'llanma «Falsafa» fani bo'yicha tahsil oluvchi bakalavriat bosqichining barcha yo'naliishlari uchun mo'ljallangan.

Loyiha muharriri: N. Oblomuradov

Taqrizchilar:

Falsafa fanlari doktori, prof. S. Mamashokirov
Tarix fanlari nomzodi, dosent F. Tolipov

Mualliflar mazkur ta'lim texnologiyasini yaratishda o'zining maslahatlarini ayamaganligi, kitobning yanada mazmunli bo'lishida fikrlari bilan o'rtoqlashganligi hamda tashkiliy ishlarga yordam bergenliklari uchun, pedagogika fanlari nomzodi, dosent O. Xudoyorovaga, katta o'qituvchi A. Xudayorovga hamda «Ijtimoiy-gumanitar fanlar» kafedrasining professor-o'qituvchilariga o'z minnatdorchiligini bildiradi.

Mualliflar tahririda chop etilgan.

© N. Oblomuradov, X. Alikulov, Soliq akademiyasi. 2008.

MUNDARIJA

KIRISH.....6

I-BO'LIM. «Falsafa» FANIDAN KONSEPTUAL KIRISH.....	O'QUV QO'LLANMANING ASOSLARIGA
1. «Falsafa» fanining dolzarbliji, maqsadi va vazifalari.....	7
“Falsafa” o'quv kursi bo'yicha ma'ruza va amaliy mashg'ulotlarda o'qitish texnologiyalarini ishlab chiqishning konseptual asoslari.....	12
2.« Falsafa» fani bo'yicha o'quv dasturi.....	17
3. Fan bo'yicha o'zlashtirishni baholashning ko'rsatkichlari va mezonlari.....	28
4. Mustaqil ish mavzulari.....	29
5. Axborot uslubiy ta'minot.....	31
6. «Falsafa» fanidan yakuniy baholash savollari.....	38
II-BO'LIM. « Falsafa » FANIDAN MA'RUZA VA AMALIY MASHG'ULOTLAR BO'YICHA REJA TOPSHIRIQLAR VA O'QUV-USLUBIY MATERIALLARI MAJMUASI.....	49
1-mavzu «Falsafa» fanining predmeti, va asosiy mavzulari. Falsafiy dunyoqarash.	
1.1. Kirish-mavzusi bo'yicha reja-topshiriq va o'quv-uslubiy materiallar.....	50
1.2. Amaliy mashg'ulot bo'yicha reja-topshiriq va o'quv uslubiy materiallar.....	59
2-mavzu «Istiqlol va falsafiy dunyoqarashning yangilanish muammolari»	
2.1. ma'ruza bo'yicha reja-topshiriq va o'quv-uslubiy materiallar.....	63
2.2. Bilimlarni chuqurlashtirish va mustahkamlashga qaratilgan amaliy mashg'ulot bo'yicha reja-topshiriq va o'quv-uslubiy materiallar.....	80
3-mavzu « Qadimgi Sharq va Antik dunyo falsafasi».	
3.1. Hamkorlikda o'qitish texnologiyasiga asoslangan ma'ruza bo'yicha reja-topshiriq va o'quv-uslubiy materiallar.....	86
3.2.Anjumanga asoslanga amaliy mashg'ulot bo'yicha reja-topshiriq va o'quv uslubiy materiallar.....	87
4-mavzu «Ilk falsafiy bilimlar: nazariya va metodologiya muammolari»	
4.1. «Koop-koop»texnologiyasiga asoslangan ma'ruza bo'yicha reja-topshiriq va o'quv-uslubiy materiallar.....	99
4.2. Hamkorlikda o'qitish texnologiyasiga asoslangan amaliy mashg'ulot bo'yicha reja-topshiriq va o'quv uslubiy materiallar.....	105
5-mavzu. «Markaziy Osiyoda ilk o'rta asrlar falsafasi».	

5.1. Ekspert ishtirokida tashkil etilgan ma’ruza bo’yicha reja-topshiriq va o’quv-uslubiy materiallar.....	109
5.2. Hamkorlikda o’qitish texnologiyasiga asoslangan amaliy mashg’ulot bo’yicha reja-topshiriq va o’quv uslubiy materiallar.....	115
6-mavzu. «Temuriylar davri va o’rta asrlar falsafasi».	
6.1. Muammoli ta’lim asosida tashkil etilgan ma’ruza bo’yicha reja-topshiriq va o’quv-uslubiy materiallar.....	120
6.2. Anjumanga asoslangan amaliy mashg’ulot bo’yicha reja-topshiriq va o’quv uslubiy materiallar.....	125
7-mavzu: «XVI asrdan XX asr boshlarigacha O’zbekistonidagi ijtimoiy-falsafiy tafakkur»	
7.1. Hamkorlikda o’qitishga va grafik organayzerlarga asoslangan ma’ruza bo’yicha reja-topshiriq va o’quv-uslubiy.....	130
7.2. Hamkorlikda o’qitish texnologiyasiga asoslangan amaliy mashg’ulot bo’yicha reja-topshiriq va o’quv uslubiy materiallar.....	135
8-mavzu. «O’rta asrlar va yangi davr G’arb falsafasi. Hozirgi zamon jahon falsafasi va uning asosiy oqimlari».	
8.1. Informasion tematik maruza. Birgalikda o’qiymiz metodini (usulini) qo’llash asosida, ma’ruza bo’yicha reja-topshiriq va o’quv-uslubiy materiallar	140
8.2. Hamkorlikda o’qitish texnologiyasiga asoslangan amaliy mashg’ulot bo’yicha reja-topshiriq va o’quv uslubiy materiallar.....	144
9-mavzu. "Hozirgi zamon jahon falsafasi va uning asosiy oqimlari"	
9.1. Informasion tematik ma’ruza. Birgalikda o’qiymiz usulini qo’llash asosida ma’ruza mashg’uloti bo’yicha reja-topshiriq va o’quv uslubiy materiallar	149
9.2. Amaliy mashg’ulot-konferensiyaviy bilimlarni mustahkamlashga qaratilgan trening amaliy mashg’ulot bo’yicha reja-topshiriq va o’quv uslubiy materiallar.....	154
10 - mavzu: "Borliq falsafasi"	
10.1 Informasion tematik maruza. Birgalikda o’qiymiz usulini qo’llash asosida ma’ruza mashg’ulot bo’yicha reja-topshiriq va o’quv uslubiy materiallar.....	159
10.2. Amaliy mashg’ulot-konferensiya nazariy bilimlarni mustahkamlashga qaratilgan trening amaliy mashg’ulot bo’yicha reja-topshiriq va o’quv uslubiy materiallar.....	163
11 - mavzu: "Tabiat falsafasi ".	
11.1. ma’ruza mashg’ulot bo’yicha reja-topshiriq va o’quv uslubiy materiallar.....	168
11.2 Hamkorlikda o’qitish texnologiyasiga asoslangan amaliy mashg’ulot bo’yicha reja-topshiriq va o’quv uslubiy materiallar.....	173
12-mavzu: "Taraqqiyot va aloqadorlik: tamoyillar va talqinlar. Falsafada metod muammozi "	
12.1. Ma’ruza mashg’ulot bo’yicha reja-topshiriq va o’quv uslubiy materiallar.....	177

12.2 Hamkorlikda o'qitish texnologiyasiga asoslangan amaliy mashg'ulot bo'yicha reja-topshiriq va o'quv uslubiy materiallar.....	183
13-mavzu: "Rivojlanish va o'zaro aloqadorlikning umumiy qonuniyatları. Falsafiy qonunlar va kategoriyalar".	
13.1. Ma'ruza mashg'ulot bo'yicha reja-topshiriq va o'quv uslubiy materiallar.....	193
13.3 Hamkorlikda o'qitish texnologiyasiga asoslangan amaliy mashg'ulot bo'yicha reja-topshiriq va o'quv uslubiy materiallar.....	196
14-mavzu: "Ong muammosining falsafiy tahlili".	
14.1. Ma'ruza mashg'ulot bo'yicha reja-topshiriq va o'quv uslubiy materiallar.....	199
14.2. Hamkorlikda o'qitish texnologiyasiga asoslangan amaliy mashg'ulot bo'yicha reja-topshiriq va o'quv uslubiy materiallar.....	202
15-mavzu: "Bilish falsafasi".	
15.1. Ma'ruza mashg'ulot bo'yicha reja-topshiriq va o'quv uslubiy materiallar.....	205
15.2. Hamkorlikda o'qitish texnologiyasiga asoslangan amaliy mashg'ulot bo'yicha reja-topshiriq va o'quv uslubiy materiallar.....	208
16-mavzu: "Jamiyat falsafasi. Istiqlol va taraqqiyotning o'zbek modeli"	
16. 1. Ma'ruza mashg'ulot bo'yicha reja-topshiriq va o'quv uslubiy materiallar.....	211
16.2 Hamkorlikda o'qitish texnologiyasiga asoslangan amaliy mashg'ulot bo'yicha reja-topshiriq va o'quv uslubiy materiallar.....	214
17-mavzu: "Inson falsafasi. Mustaqillik va islohotlarning ijtimoiy mohiyati"	
17.1. Ma'ruza mashg'ulot bo'yicha reja-topshiriq va o'quv uslubiy materiallar.....	223
17.2 Hamkorlikda o'qitish texnologiyasiga asoslangan amaliy mashg'ulot bo'yicha reja-topshiriq va o'quv uslubiy materiallar.....	229
18-mavzu: "Qadriyatlar falsafasi. O'zbekistonda inson kadri va shaxs erkinligi".	
18.1. Ma'ruza mashg'ulot bo'yicha reja-topshiriq va o'quv uslubiy materiallar.....	234
18.1. Hamkorlikda o'qitish texnologiyasiga asoslangan amaliy mashg'ulot bo'yicha reja-topshiriq va o'quv uslubiy materiallar.....	
19-mavzu: "Siyosat va huquq falsafasi. Demokratik jamiyat qurish falsafasi".	
19.1. Ma'ruza mashg'ulot bo'yicha reja-topshiriq va o'quv uslubiy materiallar.....	250
19.2. Hamkorlikda o'qitish texnologiyasiga asoslangan amaliy mashg'ulot bo'yicha reja-topshiriq va o'quv uslubiy materiallar.....	254
20-mavzu: "Global muammolar falsafasi. O'zbekistonda tabiat, jamiyat va insonni asrash".	
20.1. Ma'ruza mashg'ulot bo'yicha reja-topshiriq va o'quv uslubiy materiallar.....	257
20.2. Hamkorlikda o'qitish texnologiyasiga asoslangan amaliy mashg'ulot bo'yicha reja-topshiriq va o'quv uslubiy materiallar.....	262

21- mavzu: Jahon sivilizasiyasi va O'zbekiston istiqbolining falsafiy masalalari.

- 21.1. Ma'ruza mashg'ulot bo'yicha reja-topshiriq va o'quv uslubiy materiallar.
21.2. Hamkorlikda o'qitish texnologiyasiga asoslangan amaliy mashg'ulot bo'yicha reja-topshiriq va o'quv uslubiy materiallar.

22 -mavzu: «Mantiq» fanining predmeti va ahamiyati. «Mantiq» fanining asosiy tarixiy rivojlanish bosqichlari.

- 22.1. Ma'ruza mashg'ulot bo'yicha reja-topshiriq va o'quv uslubiy materiallar.
22.2. Hamkorlikda o'qitish texnologiyasiga asoslangan amaliy mashg'ulot bo'yicha reja-topshiriq va o'quv uslubiy materiallar.

23 - mavzu: Tafakkurning asosiy qonunlari. Tushuncha, hukm va xulosa chiqarish.

- 23.1. Ma'ruza mashg'ulot bo'yicha reja-topshiriq va o'quv uslubiy materiallar.
23.2. Hamkorlikda o'qitish texnologiyasiga asoslangan amaliy mashg'ulot bo'yicha reja-topshiriq va o'quv uslubiy materiallar.

24 - mavzu: «Estetika» fanining predmeti va vazifalari.

- 24.1. Ma'ruza mashg'ulot bo'yicha reja-topshiriq va o'quv uslubiy materiallar.
24.2. Hamkorlikda o'qitish texnologiyasiga asoslangan amaliy mashg'ulot bo'yicha reja-topshiriq va o'quv uslubiy materiallar.

25 - mavzu: « Estetika » fan sifatida.

- 25.1. Ma'ruza mashg'ulot bo'yicha reja-topshiriq va o'quv uslubiy materiallar.
25.2. Hamkorlikda o'qitish texnologiyasiga asoslangan amaliy mashg'ulot bo'yicha reja-topshiriq va o'quv uslubiy materiallar.

26 - mavzu: "San'at va jamiyat hayoti".

- 26.1. Ma'ruza mashg'ulot bo'yicha reja-topshiriq va o'quv uslubiy materiallar.
26.2. Hamkorlikda o'qitish texnologiyasiga asoslangan amaliy mashg'ulot bo'yicha reja-topshiriq va o'quv uslubiy materiallar.

27 - mavzu: «Etika» fanining predmeti va vazifalari.

- 27.1. Ma'ruza mashg'ulot bo'yicha reja-topshiriq va o'quv uslubiy materiallar.
27.2. Hamkorlikda o'qitish texnologiyasiga asoslangan amaliy mashg'ulot bo'yicha reja-topshiriq va o'quv uslubiy materiallar.

28 - mavzu: "Rahbar etikasi va axloqiyiligin o'zaro aloqadorligi".

- 28.1. Ma'ruza mashg'ulot bo'yicha reja-topshiriq va o'quv uslubiy materiallar.
28.2. Hamkorlikda o'qitish texnologiyasiga asoslangan amaliy mashg'ulot bo'yicha reja-topshiriq va o'quv uslubiy materiallar.

29 - mavzu: "Jamiyat va oila falsafasi".

- 29.1. Ma'ruza mashg'ulot bo'yicha reja-topshiriq va o'quv uslubiy materiallar.
29.2. Hamkorlikda o'qitish texnologiyasiga asoslangan amaliy mashg'ulot bo'yicha reja-topshiriq va o'quv uslubiy materiallar.

IZOHLI LUG'AT GLOSSARIY..... 2

KIRISH

Qo'lingizdagi o'quv qo'llanma «Falsafa» kursini o'qitish jarayonida mustaqil faoliyatingizga yordam beradi.

Mazkur qo'llanma kirish, o'quv fani bo'yicha o'quv qo'llanmaning konseptual asoslari hamda ma'ruza va amaliy mashg'ulotlar bo'yicha reja-topshiriqlar va o'quv-uslubiy hujjatlar bo'limlaridan tarkib topgan.

O'quv qo'llanma konseptual asoslari bo'limida «Falsafa» o'quv kursini o'qitishning dolzarbliji hamda mazkur kursning dasturiy tuzilishi keltirilgan bo'lib, bunda asosiy e'tibor kurs bo'yicha o'qitishning mazmunini ochib berishga qaratilgan. Kursning o'quv dasturi ma'ruza va amaliy mashg'ulotlarning mazmuni, rejasi hamda foydalaniladigan adabiyotlarning ro'yxatidan iborat. Bu bo'limda nazariy va amaliy mashg'ulotlar, mustaqil ishlarni bajarish, o'zlashtirishni nazorat qilish hamda baholashning ko'rsatkich va mezonlari aks etgan.

Ikkinchi bo'limda, har bir mavzu bo'yicha reja topshiriqlar va o'quv-uslubiy hujjatlar keltirilgan. Talabalarda mustaqil fikrlash, o'z fikrlarini asosli himoya qilish, ilmiy-ijodiy ko'nikmalarini hosil qilish uchun bahs-munozara darslariga alohida e'tibor qaratilgan.

Bunday darslarni olib borishda hozirgi paytda muhim ahamiyat kasb etib borayotgan ilg'or pedagogik texnologiyalardan foydalanish, jumladan kichik guruhlarda ishlash, guruhlarning ma'lum mavqeni egallashi, «B.B.B», «aqliy hujum» kabi usullarni keng qo'llash orqali darsning samaradorligi va qiziqarli kechishi ta'minlagan.

I-BO'LIM.

O'QUV QO'LLANMANING KONSEPTUAL ASOSLARI

«FALSAFA» FANINI O'QITISHNING DOLZARBLIGI VA AHAMIYATI.

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgan davrdan boshlab turli sohalarda jiddiy o'zgarishlar ro'y berdi. Bu o'zgarishlar qurilayotgan yangi jamiyatning barcha sohalarini qamrab olmoqda. Shu munosabat bilan aytish lozimki, mazkur sohalar falsafiy jihatdan tahlil qilinib nazariy xulosalar chiqariliishga muhtoj. Bu jihatlar talabalar tomonidan oddiy tushunchalar asosida tushunilsa falsafaning chuqur mazmuni nimadan iboratligi ularda namoyon bo'ladi. Falsafaning jamiyatda tutgan o'rnini uning boshqa fanlardan farqlarini ayniqsa, inson dunyoqarashining falsafiy shakllanishi uchun sharoit yaratilishini yoshlar sezsalar, olam to'g'risida bir butun tasavvurga ega bo'ladilar.

Falsafa fani faqat bir mamlakat hududida paydo bo'lган emas. U dunyo xalqlari, olimu-fuzalolari tomonidan yaratilgan va rivojlantirilgan. Demak, falsafa fanining rivojlanishiga mamlakatimiz hududida yashab, ijod qilgan allomalar va hozirgi davrda yashab ijod qilayotgan mutafakkir ziylolilarning ham xizmati kattadir. Aynan, falsafada shularni o'rganish, ularning nodir fikrlaridan xulosalar chiqarib, milliylikni unutmaslik va mustaqillik mafkurasini asosida falsafiy mushohada yurgizish yoshlarimiz uchun ayniqsa dolzarbdir.

Yaratilayotgan milliy g’oya va milliy mafkura yosh avlodlarimizni vatanparvarlik, el-yurtga sadoqat ruhida tarbiyalash, ularning qalbida insonparvarlik va odamiylik fazilatlarini payvand qilishdek olivjanob ishlarimizda madadkor bo’lishi zarur ekan, bunday fazilatlar falsafiy tafakkur tufayli vujudga keladi.

1.1. Fanni o’qitishning maqsad va vazifalari

Bugungi kunda erishgan mustaqilligimizni mustahkamlashda yosh avlodning o’rni va roli beqiyosdir. Shu jihatdan ularni etuk, barkamol insonlar qilib tarbiyalash ta’lim-tarbiya tizi mining muhim va dolzarb vazifalaridan biridir. Bu vazifalarni amalga oshirishda barcha ijtimoiy-gumanitar fanlar qatori «Falsafa» fanining o’rni beqiyosdir.

Prezidentimiz aytganlaridek: «*inson o’zligini anglagani, nasl-nasabini bilgani sari yuragida Vatanga muhabbat tuyg’usi ildiz otib, yuksala boradi. Bu ildiz qanchalik chuqur bo’lsa, tug’ilib o’sgan yurtga muhabbat ham shu qadar cheksiz bo’ladi*». Bugungi kunda milliy g’oya, milliy mafkurani yaratish va uni odamlarimiz ongiga singdirish hayotiy zarurat darajasiga ko’tarildi. Bu hayotiy ehtiyojda ham falsafiy tafakkur muhim rol o’ynaydi. Falsafaning o’ziga xos xususiyati shundaki, u ijtimoiy ong shakli sifatida olam, dunyo to’g’risida to’liq tasavvur berish, moddiy va g’oyaviy jarayonlar, ularning o’zaro munosabati, olamni bilish uni o’zgartirish yo’llari haqida fikr yurgizadi. Yuqoridagilardan ma’lum bo’ladiki, falsafa yagona fandir, dunyoni bilish uslubidir. Bu fan yoshlarga vatanimiz falsafiy fikri tarixi, madaniyati, xalqimizning bosib o’tgan siyosiy, ijtimoiy - iqtisodiy hayoti, milliy qadriyatlarimiz, an’analarimiz va urf-odatlarimiz haqida chuqur ma’lumotlar beribgina qolmay, O’zbekistonning istiqqloldan keyingi o’tgan qisqa davrda erishgan yutuqlari, amalga oshirilayotgan islohotlar, uning bosqichlari, strategik yo’nalishlari, mustaqil davlatimizning olib borayotgan ichki va tashqi siyosati, bu boradagi vazifalar xususidagi bilimlarini yanada oshirib borishni ham maqsad qilib qo’yadi. Talabalarni vatanimiz, xalqimiz o’tmishidan boxabar qilish, shu mustahkam poydevor tufayli kelajagimiz buyukligiga ishonchini yanada mustahkamlash mazkur fanning bosh vazifasidir.

1.2. FAN BO’YICH A TALABALLARNING BILIMIGA QO’YILADIGAN TALABLAR:

- talaballarning bilim doirasini yanada kengaytirish;
- ularga yaratilayotgan milliy ong va milliy istiqlol mafkurasining asosiy g’oyalarini singdirish;
- milliy istiqlol tafakkurini singdirish;
- milliy o’zligini anglatish;
- vatanparvarlik va milliy g’urur hissini kuchaytirish;
istiqlolimizning qisqa davrida amalga oshirilayotgan islohotlarimizning maqsadi va mohiyatiga tushunib etishiga erishish;

- talabalarni o’z xalqi tarixi, madaniyati, milliy qadriyatlarini to’liq bilguvchi, vatanga munosib farzand sifatida tayyorlash va shu bilan birgalikda ularni umu minsoniy qadriyatlarni hurmat qilguvchi, tushunib etuvchi mutaxassislar qilib etishtirishdan iboratdir.

1.3. O’quv rejasidagi boshqa fanlar bilan aloqasi

«Falsafa» fanini o’rganish o’quv rejasidagi barcha, ayniqsa ijtimoiy-gumanitar fanlar ya’ni:

«Ma’naviyat asoslari. Dinshunoslik», «Madaniyatshunoslik», «Falsafa», «Siyosatshunoslik. O’zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti», «Sosiologiya», «Milliy istiqlol g’oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar» kabi fanlar bilan o’zaro aloqadorlikda o’rganiladi.

1.4. Fanni o’rganishda yangi texnologiyalar.

«Falsafa» fanini o’rganish jarayonida o’qitishning ochiq va muammoli ma’ruzalar o’tkazish, kino va videofilmlardan foydalanish, muzeyda dars, tarixiy obidalarga sayohat, «bahs-munozara», «mo’jizalar maydoni» o’yini kabi yangi texnologiyaga mos uslublar qo’llaniladi.

1.5. Fanning o’quv semestrleri bo’yicha taqsimoti va uslubiy ko’rsatmalar.

«Falsafa» fani bakalavriat yo’nalishi II bosqich talabalariga 3-4 semestrda o’qitiladi. Falsafa fanining o’ziga xos xususiyatlari, voqelikni teran tahlil etishning mezonlari, hamda ushbu fanni to’liq o’rganish uchun dastur mazmuniga kirmay qolgan ayrim mavzular, bugungi kunimizdagi falsafiy jarayonlar, Prezidentimiz asarlari, nutqlari, maqolalari mustaqil ish sifatida o’rganiladi.

Mustaqil ish mavzulari yuzasidan talabalar referat ma’ruzalari tayyorlaydilar.

1.6. Umumiy va o’quv ishlari turlari bo’yicha hajmi.

Kunduzgi o’quv bo’limida umumiy o’quv mashg’ulotlari hajmi 171 soat bo’lib, ulardan 36 soat ma’ruza va 54 soat amaliy mashg’ulot (se minar) darslaridir. 81 soat talabalarning mustaqil ishlari uchun ajratilgan.

3. “Falsafa” o’quv kursi bo’yicha ma’ruza va amaliy mashg’ulotlarda o’qitish texnologiyalarini ishlab chiqishning konseptual asoslari

O’zbekiston o’z istiqlol va taraqqiyot yo’lidan rivojlanib, xalqaro maydonda o’zining munosib o’rnini topmoqda. Davlatimizning mustaqil taraqqiyot yo’lini ta’minlash uchun ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, madaniy va ma’rifiy sohalarda chuqur islohotlar amalga oshirilmoqda. Jamiyat va inson manfaatiga qaratilgan bu islohotlarning samarasi bevosita ta’lim tizimida tayyorlanayotgan mutaxassis kadrlarning salohiyatiga bog’liqdir.

Shu bois mustaqillikning dastlabki kunlaridan boshlab sifatli kadrlar tayyorlashga qodir milliy asosga qurilgan va jahondagi ilg’or davlatlar ta’lim taraqqiyoti tajribalariga tayanadigan kadrlar tayyorlash tiziminiyaratish asosiy vazifalaridan biriga aylandi. **1997 yilda qabul qilingan O’zbekiston Respublikasining “Ta’lim to’g’risida”gi qonuni va “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”** milliy ta’lim taraqqiyoti va milliy kadrlar tayyorlash tizimi istiqbollarini belgilovchi mezon sifatida bu sohadagi ishlarni rivojlantirishda yana bir tarixiy davr boshlanishiga za min yaratdi.

Kadrlar tayyorlash milliy dasturining ikkinchi bosqichi ta’lim jarayonidagi sifat ko’rsatkichlarini yaxshilash, ya’ni jahon andozalariga mos, raqobatbardosh, yuqori saviyaga ega bo’lgan mutaxassislar tayyorlash bilan bog’liqdir. Ushbu murakkab muammolarning yechi mini topib, ularni amalda keng qo’llash oliy ta’lim tizimi xodimlari oldiga dolzarb vazifalarni qo’yadi. Bunda aniq vazifalar sifatida bevosita o’quv jarayonini yaxshilash, o’quv dasturlarini yanada takomillashtirish, o’qitishning zamonaviy pedagogik texnologiyalarini amalga joriy qilish, texnik vositalardan keng foydalanish va shu asosda masofadan o’qitishni keng joriy qilishdan iboratdir.

Ta’limning sifati va usuliga qarab bilim hosil bo’ladi. Bu o’qituvchining mahoratinigina emas, balki tinglovchining istak-xohishi, qobiliyati va bilim darajasini ham belgilaydi. Ta’lim uzoq davom etadigan jarayondir. Bilim esa ta’limning uzluksizligini ta’minlashga xizmat qiladigan tushunchadir. Bilim xususiylikka ega bo’lsa, ta’lim umumiylikka egadir. Ta’lim barcha uchun bir xilda davom etadigan jarayon. Bilim ob’ektiv borliqdagi voqeа-hodisalarining in’ikosi natijasida inson miyasidagi mushohadalar va tasavvurlar natijasida hosil bo’ladigan tushunchalar yig’indisi sifatida namoyon bo’ladi. Ta’limdagи sifat uni berishda ishtirok etadigan kishilar sifati bilan belgilansa, bilim individuallikka ega bo’ladi. Ta’limni amalga oshiradigan yoki dars beradigan kishilarning saviyasi turlicha bo’lishi mumkin. Lekin guruhdagi talabalarga beriladigan ta’lim bir xildir. O’qituvchi bilim emas, balki ta’lim beradi. Talaba esa ana shu ta’lim jarayonida bilimga ega bo’ladi. Buning uchun u mustaqil

o'qiydi, tayyorlanadi, mushohada qiladi, tasavvurlarga ega bo'ladi, eshitganlari va o'qiganlarini sintez qiladi. Natijada bilimga ega bo'ladi.

O'quv jarayoni bilan bog'liq ta'lim sifatini belgilovchi holatlar quyidagilar: yuqori ilmiy-pedagogik darajada dars berish, muammoli ma'ruzalar o'qish, darslarni savol-javob tarzida qiziqarli tashkil qilish, ilg'or pedagogik texnologiyalardan va multimedia qo'llanmalardan foydalanish, tinglovchilarni undaydigan, o'ylantiradigan muammolarni ular oldiga qo'yish, talabchanlik, tinglovchilar bilan individual ishslash, ijodkorlikka undash, erkin muloqot yuritishga, ijodiy fikrlashga o'rgatish, ilmiy izlanishga jalb qilish va boshqa tadbirlar ta'lim ustivorligini ta'minlaydi.

Aytilganlardan kelib chiqqan holda, «Falsafa» o'quv kursi bo'yicha ta'lim texnologiyasini loyihalashtirishdagi asosiy konseptual yondoshuvlarni keltiramiz:

Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim. Bu ta'lim o'z mohiyatiga ko'ra ta'lim jarayonining barcha ishtirokchilarini to'laqonli rivojlanishlarini ko'zda tutadi. Bu esa ta'limni loyihalashtirilayotganda, albatta, ma'lum bir ta'lim oluvchining shaxsini emas, avvalo, kelgusidagi mutaxassislik faoliyatini bilan bog'liq o'qish maqsadlaridan kelib chiqqan holda yondoshishni nazarda tutadi.

Tizimli yondoshuv. Ta'lim texnologiyasi tizimning barcha belgilarini o'zida mujassam etmog'i lozim, jaryonning mantiqiyligi, uning barcha bo'g'inlarini o'zaro bog'langanligi, yaxlitligi shular jumlasidan.

Faoliyatga yo'naltirilgan yondoshuv. Shaxsning jarayonli sifatlarini shakllantirishga, ta'lim oluvchining faoliyatini faollashtirish va intensivlashtirish, o'quv jaryonida uning barcha qobiliyati va imkoniyatlari, tashabbuskorligini ochishga yo'naltirilgan ta'limni ifodalaydi.

Dialogik yondoshuv. Bu yondoshuv o'quv jarayoni ishtirokchilarning psixologik birligi va o'zaro munosabatlarini yaratish zaruriyatini bildiradi. Uning natijasida shaxsning o'z-o'zini faollashtirishi va o'z-o'zini ko'rsata olishi kabi ijodiy faoliyatni kuchayadi.

Hamkorlikdagi ta'limni tashkil etish. Demokratilik, tenglik, ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchi o'rtasidagi sub'ektiv munosabatlarda hamkorlikni, maqsad va faoliyat mazmunini shakllantirishda va erishilgan natijalarni baholashda birqalikda ishslashni joriy etishga e'tiborni qaratish zarurligini bildiradi.

Muammoli ta'lim. Ta'lim mazmunini muammoli tarzda taqdim qilish orqali ta'lim oluvchi faoliyatini faollashtirish usullaridan biri. Bunda ilmiy bilimni ob'ektiv qarama-qarshiligi va uni hal etish usullarini, dialektik mushohadani shakllantirish va rivojlantirishni, amaliy faoliyatga ularni ijodiy tarzda qo'llashni mustaqil ijodiy faoliyatni ta'minlanadi.

Axborotni taqdim qilishning zamonaviy vositalari va usullarini qo'llash. Yangi kompyuter va axborot texnologiyalarini o'quv jarayoniga tatbiq etish.

Keltirilgan konseptual yo'riqlarga asoslanib, «Falsafa» kursining maqsadi, tuzilishi, o'quv axborotining mazmuni va hajmidan kelib chiqqan holda, ma'lum sharoit va o'quv rejasida o'rnatilgan vaqt oralig'ida o'qitishni,

kommunikasiyani, axborotni va ularni birgalikdagi boshqarishni kafolatlaydigan usullar va vositalar tanlovidan foydalanish amalga oshirildi.

O'qitishning usullari va texnikasi. Ma'ruza (kirish, mavzuga oid, vizuallash), muammoviy usul, paradokslar va loyihalash usullari, amaliy ishslash usuli.

O'qitishni tashkil etish shakllari: Dialog, polilog, muloqot, hamkorlik va o'zaro o'rghanishga asoslangan frontal, jamoaviy va guruhiy mashg'ulotlar .

O'qitish vositalari. O'qitishning an'anaviy shakllari (darslik, ma'ruza matni) bilan bir qatorda - kompyuter va axborot texnologiyalari.

Kommunikasiya usullari. Tinglovchilar bilan operativ teskari aloqaga asoslangan bevlosita o'zaro munosabatlar.

Teskari aloqa usullari va vositalari: Kuzatish, blis-so'rov, oraliq, joriy va yakuniy nazorat natijalarining tahlili asosida o'qitish diagnostikasi.

Boshqarish usullari va vositalari: O'quv mashg'uloti bosqichlarini belgilab beruvchi texnologik karta vositasida mashg'ulotlarni rejalashtirish, qo'yilgan maqsadga erishishda o'qituvchi va tinglovchining birgalikdagi harakati, nafaqat auditoriya mashg'ulotlari, ballki auditoriyadan tashqari mustaqil ishlarning nazorati.

Monitoring va baholash: O'quv mashg'uloti jarayoni hamda butun kurs davomida o'qitishning natijalarini rejali tarzda kuzatib borish. Kurs oxirida yozma ish yordamida tinglovchilarning bilimlarini baholash.

«Falsafa» fanidan o'tiladigan mavzularga va ular bo'yicha mashg'ulot turlariga ajratilgan soatlar taqsimoti

№	Mavzular nomi	Soatlar			
		Jami	Ma'ruza	Amaliy	Mustaqil
1.	Falsafaning predmeti va asosiy mavzulari. Falsafiy dunyoqarash.	8	2	2	4
2.	Istiqlol va falsafiy dunyoqarashning yangilanish muammolari	6		2	4
3.	Qadimgi Sharq va Antik dunyo falsafasi	8	2	2	4
4.	Ilk falsafiy bilimlar: nazariya va metodologiya muammolari	4	-	2	2
5.	Markaziy Osiyoda ilk o'rta asrlar falsafasi	8	2	2	4
6.	Temuriylar davri va o'rta asrlar falsafasi	8	2	2	4
7.	XVI asrdan XX asr boshlarigacha O'zbekistondagi ijtimoiy-falsafiy ta-fakkur	6	-	2	4
8.	O'rta asrlar va yangi davr G'arb falsafasi. Hozirgi zamon jahon falsafasi va uning asosiy oqimlari.	6	2	2	2
9.	Hozirgi zamon jahon falsafasi va uning asosiy oqimlari	6	-	2	4
10.	Borliq falsafasi	6	2	2	2
11.	Tabiat falsafasi	6	-	2	4
12.	Taraqqiyot va aloqadorlik: tamoyillar va talqinlar. Falsafada metod muammosi	8	2	2	4
13.	Rivojlanish va o'zaro aloqadorlikning umumiy qonuniyatları. Falsafiy qonunlar va kategoriyalar.	6	2	2	2
14.	Ong muammosining falsafiy tahlili	6	2	2	2
15.	Bilish falsafasi	6	2	2	2
16.	Jamiyat falsafasi. Istiqlol va taraq-qiyotning o'zbek modeli	6	-	2	4
17.	Inson falsafasi. Mustaqillik va islohotlarning ijtimoiy mohiyati	4		2	2
18.	Qadriyatlar falsafasi. O'zbekistonda inson kadri va shaxs erkinligi.	6	2	2	2
19.	Siyosat va huquq falsafasi. Demokratik jamiyat qurish falsafasi.	4		2	2
20.	Global muammolar falsafasi. O'zbekistonda tabiat, jamiyat va insonni asrash	7	2	2	3
21.	Jahon sivilizasiysi va O'zbekiston istiqbolining falsafiy masalalari	4	-	2	2
22.	«Mantiq» fanining predmeti va ahamiyati. «Mantiq» fanining asosiy tarixiy rivojlanish bosqichlari.	6	2	2	2
23.	Tafakkurning asosiy qonunlari. Tushuncha, hukm va xulosa chiqarish	4	2	-	2
24.	«Estetika» fanining predmeti va vazifalari	4	2		2
25.	«Estetika» fan sifatida	4		2	2

26.	San'at va jamiyat hayoti	6	2	2	2
27.	«Etika» fanining predmeti va vazifalari	8	2	2	4
28.	Rahbar etikasi va axloqiyligining o'zaro aloqadorligi	4		2	2
29.	Jamiyat va oila falsafasi	6	2	2	2
	Jami	171	36	54	81

«FALSAFA» FANINING MAZMUNI

1-mavzu: Falsafaning predmeti va asosiy mavzulari. Falsafiy dunyoqarash. Reja:

«Falsafa» atamasining mohiyati va mazmuni. «Falsafa» va «faylasuf» tushunchalarining tarixiy va zamonaviy talqinlari. Hozirgi davr falsafasining asosiy vazifalari.

Dunyoqarash tushunchasi, uning mohiyati va mazmuni. Individual va ijtimoiy dunyoqarash. Dunyoqarashning tarixiy shakllari.

Afsona va rivoyatlar - mifologik dunyoqarashning g'oyaviy ildizi. Mifologik dunyoqarashning genezisi va falsafiy-tarixiy ahamiyati. Doston, rivoyat va xalq og'zaki ijodining falsafiy talqini.

Diniy dunyoqarash, uning asosiy qadriyatlari va tamoyillari. Dinning tarixiy shakllari. Dinning dunyoviy va ilohiy talqini. Teologyaning falsafiy masalalari. Falsafa- dunyoqarash sifatida. Uning boshqa shakldagi dunyoqarashlar bilan o'zaro bog'liqligi. Nazariya va amaliyotning birligi – falsafiy dunyoqarash tamoyili sifatida.

Falsafiy dunyoqarashning mohiyati. Dunyoqarashning umuminsoniyva milliy xususiyatlari. Hozirgi davr O'zbekistonda yangi falsafiy dunyoqarashni shakllantirish va komil insonni tarbiyalashning ustuvor vazifalari. Hozirgi zamon soliq xizmati xodi mining dunyoqarashi.

2-mavzu: Qadimgi Sharq va antik dunyo falsafasi

Sharq – jahon sivilizasiyasining markazlaridan biri. Qadimgi Sharq, Misr va Bobil falsafasi. Iudaizm dini va falsafiy ta'lomi. Hind falsafasi, vedalar va upanishadalar. Jaynizm, hinduizm va buddizm. Qadimgi Xitoy falsafasi: Konfusiy va Lao Szi, konfusiylilik va daosizm g'oyalari.

Antik dunyo falsafasi. Antik dunyo va Yunoniston falsafasining klassik davri. Milet va Eley maktablari. Geraklit, Pifagor va pifagorchilar va ularning dunyo mohiyati haqidagi qarashlari. Suqrot va Platon falsafasi. Platonning g'oyalar dunyosi va soyalar dunyosi to'g'risidagi ta'limoti. Atomistlar: Levkipp, Demokrit, Epikur . Aristotelning hayoti, faoliyati va falsafiy merosi. Ellinizm davri va stoiklar falsafasi. Qadimgi Rimda falsafiy fikrlar. Qadimgi Sharq va G'arb falsafasida vorisiylik tamoyili. Xristianlikning shakllanishi, tarqalishi va G'arb falsafasiga ta'siri. Qadimgi Sharq va antik dunyo falsafasini o'rganish zarurati, uning jahon madaniyati va fani uchun ahamiyati.

3-mavzu: Markaziy Osiyoda ilk o'rta asrlar falsafasi.

Ilk o'rta asrlar falsafasining mohiyati va xususiyatlari. Markaziy Osiyoning arablar tomonidan bosib olinishi. Islomning tarqalishi va xalq ongiga singdirilish jarayoni.

Islomning mohiyati va mazmuni, falsafasi. Qur'on va Hadislar ularning falsafiy mazmuni. Islomning asosiy yo'nalishlari. Shariat, tariqat hamda iymon tushunchalari.

Diniy bag'rikenglik va dunyoviy bilimlar takomili, ular o'rtasidagi bog'liqlik va aloqadorlik. Imom-Buxoriy va Imom Termiziy--buyuk hadisshunos olimlar. «Al jome' as-sahih» asari, Imom-ul-A'zam Abu Hanifa, imom Moturidiy va Burhonuddin al-Marg'inoniy qarashlari, «Al-Hidoya» asari. Al-Xorazmiy, al-Farg'ony, Forobiy, Beruniy va Ibn Sinoning ilmiy-falsafiy qarashlari. Ularning tabiiy bilimlar va falsafiy ta'limotlar taraqqiyotiga qo'shgan hissasi, Sharq va jahon madaniyatiga ta'siri.

Tasavvuf va uning tariqatlari. Kalom falsafasi, mu'taziliylar va mutakallimlar ("Vahtad-ul vujud" va "Vahdat-ul mavjud") ta'limoti . Markaziy Osiyoda tasavvuf va uning yo'nalishlari. Mo'g'ul bosqini arafasidagi g'oyaviy va mafkuraviy beqarorlik. Markaziy Osiyo uyg'onish davrining ikki bosqichi, ular o'rtasidagi uzviy aloqadorlik masalalari. Ilk o'rta asrlardagi Vatanimiz madaniyatining Sharq va jahon sivilizasiyasiga ta'sirini o'rganish muammolari. «Allah qalbimizda, yuragimizda» tamoyili va ilk o'rta asrlar falsafasini o'rganishning hozirgi davrdagi ahamiyati.

4-mavzu: Temuriylar davri va o'rta asrlar falsafasi.

Mo'g'ul bosqini oqibatlari va markazlashgan davlat g'oyasi. Amir Temuring hayoti, faoliyati, uning jahon va Vatan taraqqiyotidagi o'mi. «Kuch-adolatdadir» tamoyili. Temur va temuriylar davlati, uning ijtimoiy-siyosiy hayoti. «Temur tuzuklari» va milliy g'oyalalar rivoji.

Mirzo Ulug'bek--O'rta asr madaniyatining atoqli vakili. Ulug'bek akademiyasi. Ulug'bek akademiyasining madaniyat rivojidagi o'mi va jahon fani taraqqiyotiga ta'siri. Ulug'bek davri va undan keyingi madaniy hayot, siyosiy jarayonlar, g'oyaviy va mafkuraviy o'zgarishlar.

Alisher Navoiyning hayoti va ijodi. Jomiy va Navoiy hamkorligi-millatlararo hamjihatlik namunasi. Alisher Navoiyning ijtimoiy-falsafiy qarashlari. Shoir ijodida «Ona tili--millat ruhi» tamoyilining namoyon bo'lishi. Alisher Navoiyning odil podsholar va komil insonlar to'g'risidagi milliy g'oyalari.

Bobur va boburiylar davrining- Sharq va Hindiston ijtimoiy-falsafiy fikri rivojida tutgan o'mi. «Boburnoma» asari va uning falsafiy mazmuni.

Temuriylar davri va o'rta asrlar falsafasini o'rganishning bugungi kundagi ahamiyati. Bu jarayonning soliq xizmati xodi mini, milliy g'oyaga sodiqlik ruhida tarbiyalashdagi ahamiyati.

5-mavzu: O'rta asrlar va yangi davr G'arb falsafasi. Hozirgi zamon jahon falsafasi va uning asosiy oqimlari.

Rim imperiyasining qulashi va Yevropada yagona milliy mafkuraning tanazzuli. O'rta asrlarda Yevropa madaniyati. Nominalizm va realizm, apologetika, patristika va sxolastika g'oyalari.

Renessans davri falsafiy tafakkuri. Yevropada XV-XVII asrlardagi ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlar va yangi zamon falsafiy tafakkurining shakllanishi. F. Bekon, J. Lokk, T. Gobbs qarashlari.

XVII asr Yevropa falsafasidagi rasionalizm. XVIII asr fransuz falsafasi va ma'rifatparvarligi: Volter, Russo, Lametri, Didro, Gelvessiy, Golbax. Nemis klassik falsafasi, uning tarixiy ildizlari. I. Kant va V. Gegel--nemis falsafasining yirik namoyandalari sifatida. Gegeldan keyingi falsafiy oqim va g'oyaviy jarayonlar.

O'rta va yangi davr Yevropa falsafasini o'rganishning hozirgi davrdagi ahamiyati. Hozirgi zamon falsafasidagi vorislik va yangilanish, uning XIX asrdagi ildizlari.

Pozitivizm falsafasi. Uning G'arb mamlakatlari hayoti va fuqarolar turmush tarzida namoyon bo'lishi. O. Kont, D.S.Mill, G. Spenserning qarashlari. Neopozitivizm va postpozitivizm g'oyalari.

Hayot falsafasi--hozirgi zamon demokratik mamlakatlarida inson yashashining tamoyili sifatida. A.Bergson va O.Shpengler falsafiy ta'limoti. Pragmatizm falsafasi. Ch. Pirs, U. Jeyms, J.Dyuining falsafiy qarashlari.

Ekzistensializm falsafasi. S.Kerkegor-inson falsafasining asoschisi. Inson muammosining demokratik jihatlari va dunyodagi ijtimoiy jarayonlarning markazidan joy olishi. Inson qadri va haq-huquqlari muammosi. Fenomenologiya falsafasi va uning nazariy manballari.

XX asr falsafasida milliylik va umu minsoniylik.

I.A Karimov--O'zbekiston istiqlol davri falsafasining asoschisi.

6-mavzu: Borliq falsafasi

Borliq tushunchasining mohiyati va ma'nosi. Ontologiya-borliq falsafasi. Borliq, yo'qlik, mavjudlik, moddiylik va ruhiylik tushunchalari. Ularning dunyoviy, diniy va falsafiy talqinlari. Borliq haqidagi tarixiy konsepsiylari. Yo'qlik ontologiyaning kategoriysi sifatida.

Ob'ektiv va sub'ektiv borliq tushunchalari. Borliqning anorganik, organik va ijtimoiy shakllari. Mikrodunyo, makrodunyo, megadunyo va ularning namoyon bo'lish xususiyatlari. Borliqning vujudga kelishi. Abadiylik, azaliylik, mangulik, o'tkinchilik, tug'ilish va o'llim, «bu dunyo» va «u dunyo» to'g'risidagi mushohadalar.

Voqelik (reallik) kategoriysi. Materiya tushunchasi. Uning xususiyatlari, darajalari va namoyon bo'lish shakllari haqidagi zamonaviy qarashlar. Materianing butunlik tamoyili va uning qismlarga bo'linganligi.

Harakat tushunchasi. Harakatning asosiy shakllari va ular o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik. Harakatning abadiyligi, uzlucksizligi va tinchlikning nisbiyligi tamoyili.

Borliqning fazo va vaqtida mavjud bo'lish tamoyili. Makon va zamon tushunchalari, ularning o'zaro bog'liqligi. Makon va zamon o'lchamlari va ularning cheksizligi muammosi. Makon va zamonning abadiyligi va uzlusizligi tamoyili. Ijtimoiy makon va zamon, uning taraqqiyot tamoyillari.

Borliq va uning mavjudlik usullarini falsafiy o'rganishning, soliq xizmati xodimi ma'naviy kamolotidagi ahamiyati.

7-mavzu: Taraqqiyot va aloqadorlik: tamoyillar va talqinlar. Falsafada metod muammosi.

O'zgarish, harakat, taraqqiyot va o'zaro aloqadorlik tushunchalari. Taraqqiyotning asosiy yo'naliishlari. Tabiiy, ijtimoiy va ilmiy taraqqiyot. Eng umumiyligi, umumiy va xususiy aloqadorlik.

Taraqqiyot to'g'risida turlicha nazariya, metod va konsepsiylar. Dialektika, uning zamonaviy talqini. Metafizika, uning asosiy tushunchalari va tamoyillari. Dialektika taraqqiyot va o'zaro aloqadorlik, metafizika-mavjudlik usuli sifatida. Klassik va hozirgi zamon falsafasida dialektika va metafizika masalalari. Nisbiy tinchlik va o'zgarishlarning o'zaro bog'liqligi. Olamdagi hamma narsanинг nisbiyligi to'g'risida relyativistik qarashlar.

Rivojlanish va sistemalilik. O'zaro bir-birini taqozo etish tamoyili. Sababiyat nazariyasi. Deter minizm va indeter minizm. O'z-o'zini tashkil etish tamoyili. Sinergetika va uning asosiy g'oyalari. Dialektika va metafizika, deter minizm va indeter minizm, relyativizm va sinergetikaning jahon falsafasidagi ahamiyati. I. Karimov hayot qonuniyatлari va istiqlol jarayonini dialektik talqin etish to'g'risida. Mustaqillikni mustahkamlashda soliq xizmati xodi mining vazifalari.

8-mavzu: Rivojlanish va o'zaro aloqadorlikning umumiyligi qonuniyatлari. Falsafiy qonunlar.

Taraqqiyot jarayonida takrorlanish tamoyili. Qonun va qonuniyat tushunchalari. Qonunlarning ob'ektivligi. Tabiat va jamiyat qonunlari. Falsafiy qonunlar va ularning o'ziga xos xususiyatlari.

Vоqelik va o'zgarish jarayonida ayniyat va ziddiyat dialektikasi. Ayniyat, tаfovut, qarama-qarshilik va ziddiyat tushunchalari. Ular о'rtasidagi aloqadorlik. Ayniyat va ziddiyat dialektikasining tabiat va jamiyat uchun ahamiyati. I. Karimov o'zgarishlarning ziddiyatli harakteri, uni yechish yo'llari, imkoniyatlari to'g'risida. Mustaqillik va jamiyatning tadrijiy taraqqiyoti. Buyuk kelajak - maqsad, islohotlar - una yetish usuli, barqarorlik - bu jarayon tadrijiyligini ta'minlaydigan shart-sharoit.

Olamning mavjudligi - miqdor va sifat voqeligi tarzida. Miqdor va sifat tushunchalari. Me'yор kategoriyasi. Me'yorning saqlanish qonuni. Me'yorning buzilishi va yangi sifatga o'tishi. Taraqqiyotning tadrijiy o'zgarish usuli va uning hozirgi O'zbekistonda namoyon bo'lish xususiyatlari.

O'zgarish va rivojlanish jarayonida o'z-o'zini inkor etish tamoyili. Inkor tushunchasi. Inkorni inkor dialektikasi. Vorislik-eskining inkori va yangilikning shakllanishi sifatida. Yangilikda eskilik elementlarining saqlanishi va barham topishi muammolari. Yangini qurmasdan - eskini buzmaslik tamoyili. Mustaqillikni mustahkamlash jarayonida vorislik va yangilanishning o'ziga xos xususiyatlari. Bu jarayonning istiqlol mafkurasini shakllantirish va komil inson tarbiyasi uchun ahamiyati. Soliq xizmati xodi mining falsafiy qonunlarni anglashining zarurligi.

9-mavzu: Ong muammosining falsafiy tahlili.

Ong va ruhiyat tushunchalari. Ong materiyaning yuksak darajasi sifatida. Ong va ruhiyatning shakllanishi va rivojlanishi haqidagi tabiiy-ilmiy tasavvurlar va qarashlar. Falsafada ong va ruhiyat muammosi.

Inson ongingin tabiiy-iжtimoiy jihatlari. Ong va in'ikos. In'ikosning mohiyati, asosiy shakllari. In'ikos jarayoni. Hissiyot va tasavvur. Iroda va tafakkur. O'zlikni anglash, tuyg'ular, onglilik va ongsizlik muammolari. Ong, til va nutq.

Ong va xotira. Gipnoz va parapsixologik hodisalar. Ong va bashorat. Axborotlar nazariyasi. Informasion portlash va axborot dunyosining globallashuv jarayoni.

Iжtimoiy va individual ong. Psixologiya va mafkura iжtimoiy ong darajasi sifatida. Iжtimoiy ongning asosiy shakllari, ular orasidagi farqlar va o'zaro bog'liqliq.

Ong va ruhiyatning falsafiy talqinini o'rganishning ahamiyati. Soliq xizmati xodimida ong va ruhiyat to'g'risidagi dunyoviy, falsafiy tamoyillarni shakllantirish zarurati.

10- mavzu. Bilish falsafasi

Bilim va bilish falsafiy tahlil mavzui sifatida. Bilish tushunchasi - gnoseologiyaning asosiy kategoriyasi. Bilim--bilishning maqsadi hamda asosiy natijasi. Bilishning ob'ekti va sub'ekti. Sub'ektning faolligi va bilimning ob'ektivligi. Ezoterik va Ekzoterik bilimlar.

Inson bilishining asosiy bosqichlari: hissiy va aqliy bilish. Tushuncha, hukm va xulosa chiqarish. Oldindan ko'rish, intuitiv bilish, g'oyibona bilish, taxminva bashorat qilish. Mantiqiy bilish va uning o'ziga xos jihatlari.

Ilmiy bilishning mohiyati va usullari. Metod, nazariya va metodologiya. Umumiy va maxsus usullar. Bilishda empirizm va rasionalizm. Amaliy va nazariy tadqiqotning usullari va vositalari.

Haqiqat tushunchasi. Haqiqatga erishish-bilishning asosiy maqsadi. Haqiqatning turli shakllari: mutlaq va nisbiy haqiqatlar.

Hozirgi davrda bilish va haqiqat muammosi, uni o'rganish zarurati. Soliq xizmati xodimi faoliyatida haqiqat muammosi.

11- mavzu. Qadriyatlar falsafasi. O'zbekistonda inson qadri va shaxsi erkinliklari

Qadriyatlar mavzusining tarix va sharqona qadrlash tamoyillari. O'tmishda qadriyatlar va qadrlash me'yorlariga munosabat, istiqlol va qadriyatlarga nisbatan qarashning ijobiy o'zgarishi. O'zbekistonda milliy qadriyatlarni asrab-avaylash va umuminsoniy qadriyatlarning ustuvorligini ta'minlash jarayoni.

Qadriyat tushunchasi. Qadriyat kategoriyasi, uning mohiyati va mazmuni. Qadriyatlar tizimi. Qadriyatning namoyon bo'lish shakllari va uning asosiy xususiyatlari. Qadrlash va baho, ularning o'zaro aloqasi. Aksiologiya -qadriyatlar haqidagi fan. Uning rivojlanish imkoniyatlari.

O'zbekistonda inson qadri va erkinliklari. Demokratik jamiyat qurish jarayonida inson qadriga e'tiborning kuchayishi. Inson qadrini oshirishning qonuniy kafolatlari va ularning ro'yogha chiqish jarayoni.

Hozirgi davrda qadriyatlarning jamiyat hamda inson hayotidagi ahamiyati. Soliq xizmati xodi mining kamoloti va ta'lim-tarbiya jarayonida qadrlash tamoyillarini to'g'ri shakllantirish vazifalari.

12-mavzu. Globall muammolar falsafasi. O'zbekistonda tabiat, jamiyat va insonni asrash

Insoniyat istiqbolini belgilovchi eng ustuvor yo'naliishlar va ularning muammolari. Jahon taraqqiyotining yaqin va uzoq kelajagini ilmiy bashorat qilish imkoniyatlari. Ilmiy bashorat qilish usullari. Ilmiy gipoteza va tax minlar, ularning ahamiyati. I. Karimov tomonidan asoslangan «O'zbekiston-kelajagi buyuk davlat» g'oyasi ilmiy bashorat sifatida jahon taraqqiyotining hozirgi davri va uning o'ziga xos xususiyatlari. Xalqaro integrasiya jarayonlari va universal texnologiyalar. Umumbashariy muammolar, ularning asosiy yo'naliishlari va namoyon bo'lish xususiyatlari. Umumbashariy muammolarni hal qilish yo'llari va imkoniyatlari.

Jahon va O'zbekiston XXI asrda: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. XXI asr boshlarida O'zbekiston taraqqiyotining asosiy yo'naliish va xususiyatlari.

Respublikamiz tabiatini va uni asrab-avaylash muammolari. Orolbo'yi ekologiyasi va mamlakatimiz tabiatini asrashda inson mas'uliyati. Sog'lom avlod uchun harakat va O'zbekistonda inson salomatligiga e'tibor. Ma'naviy barkamol avlodni tarbiyalash vazifalari.

Umumbashariy muammolarni o'rganishning tarbiyaviy ahamiyati. Tabiat, jamiyat va insonni asrashda soliq xizmati xodi mining faoliyati.

13-mavzu. «Mantiq» fanining predmeti va ahamiyati. «Mantiq» fanining asosiy tarixiy rivojlanish bosqichlari.

Tafakkur - mantiq fanining predmeti sifatida. Bilish jarayonini ilmiy tushunish. Hissiy bilish va uning shakllari. Aqliy bilishning o'ziga xos xususiyatlari. Tafakkurning asosiy qonunlari va shakllari. Fikrning muayyan mazmuni va mantiqiy tuzilishi. Tafakkurning asosiy shakllari: tushuncha, hukm, xulosa chiqarish.

Bilishda tilning roli. Til informasision belgilar tizimi sifatida. Belgi tushunchasi. Tabiiy va sun'iy tillar. Tilning semantik kategoriyalari. Mantiqiy atamalar.

Mantiq fanining nazariy va amaliy ahamiyati. Mantiq ilmiy o'quv jarayonining rasional asosi ekanligi. Bo'lajak iqtisodchi- soliq xizmati xodi mining fikrlash madaniyatini shakllantirishda mantiq fanining ahamiyati.

Mantiq il mining fan sifatida vujudga kelishi va taraqqiy etishi:

Qadimgi dunyoda mantiq fani; O'rta asrda Markaziy Osiyo va Yaqin Sharqda mantiq fani; Yevropada O'rta asr va yangi davrda mantiq fani; O'zbekistonda mantiq fani.

To'g'ri fikrlashning mantiq qonunlariga asoslanganligi. Fikrning chinligi va fikrlashning shaklan to'g'riliqi. Tafakkurning asosiy xususiyatlari.

Mantiqiy qonunlar, ularning mohiyati va turlari. Ayniyat, ziddiyat, uchinchisi istisno qonuni. Mantiq qonunlariga rioya qilish - bilishda haqiqatga erishishning zaruriy sharti ekanligi.

Soliq xizmati xodimlarida iqtisodiy tafakkurni shakllantirishda mantiq qonunlarining o’rni va roli.

14 mayzu. Tushuncha, hukm va xulosa chiqarish

Tushunchaning mohiyati. Tushuncha shakllanishining asosiy mantiqiy usulari: taqqoslash, tahlil va sintez, mayhumlashtirish (abstraksiyalash), umumlashtirish.

Tushunchalari: umumiy va yakka tushunchalar; jamlovchi va ayiruvchi tushunchalar; muayyan va mavhum tushunchalar; nisbatli va nisbatsiz tushunchalar; ijobil va salbij tushunchalar. Kategoriya tushunchaning maxsus turi sifatida.

Tushunchalar orasidagi munosabatlari: taqqoslanadigan va taqqoslanmaydigan tushunchalar, sig'ishadigan va sig'ishmaydigan tushunchalar.

Tushunchalarni umumlashtirish va chegaralash. Tushunchani ta’riflash (definisiva) turlari.

Tushunchani ta'riflash qoidalari. Soliq va moliya sohasida ta'riflashning ahamiyati. Tushunchalarni bo'lish va ularning turlari. Bo'lish qoidalari va unda uchraydigan xatolar.

Tasniflash (klassifikasiya) va uning turlari. Muhim belgilar asosida (tabiiy) tasniflash. Muhim bo'limgan belgilar asosida (sun'iy) tasniflash.

Bilishda tushunchaning roli. Soliq haqidagi bilimlarning shakllanishi va rivoilanishida tushunchalarning ahamiyati.

Hukm tafakkur shakli sifatida. Hukmning mohiyati va tarkibi. Hukm va gap. Sodda va murakkab hukmlar. Sodda hukm: sifat va xususiyat hukmlari, munosabat hukmlari, mavjudlik (ekzistensial) hukmlari. Qat'iy hukmlar va ularning turlari: tasdiq va inkor hukmlari. Murakkab hukm va uning turlari

Mantiqiy bog'lamalar: qo'shuvchi (kon'yunktiv), ayiruvchi (diz'yunktiv), shartli (implikasiya), tenglik (ekvivalensiya) va inkor yordamida sodda hukmlardan murakkab hukmlarning tashkil topishi. Murakkab hukmlarning chin bo'lish shartlari

Hukmlar orasidagi munosabat (**«mantiqiy kvadrat»**). Hukmlarning modallik bo'yicha bo'linishi ob'ektiv modallik va mantiqiy modallik.

Soliqlar sistemasi va munosabatlarini bilishda hukmlarning roli.

Xulosa chiqarishning umumiy harakteristikasi. Xulosa chiqarishning tarkibi: asoslar, xulosa va ular orasidagi mantiqiy bog'lanma, mantiqiy kelib chiqish tushunchasi.

Xulosa chiqarish turlari: bevosita va bilvosita xulosa chiqarish.

Bilvosita xulosa chiqarish turlari: mantiqiy kvadratdagi hukm munosabatlariiga qarab xulosa chiqarish, predikatga qarama-qarshi qo'yish orqali xulosa chiqarish.

Bevosita xulosa chiqarish turlari: deduktiv xulosa chiqarish, induktiv xulosa chiqarish, analogiya bo'yicha xulosa chiqarish.

Deduktiv xulosa chiqarish tushunchasi.

Shartli-qat'iy xulosa chiqarish: tasdiqllovchi modus, inkor etuvchi modus.

Induktiv xulosa chiqarish tushunchasi. Induksianing tajriba natijalarini umumlashtirish bilan aloqasi. Induktiv xulosa chiqarish turlari: to'liq va to'liqsiz induksiya.

Analogiya orqali xulosa chiqarish va uning tarkibi. Analogiya yo'li bilan xulosa chiqarish turlari: sifat va xususiyat analogiyasi, munosabat analogiyasi. Qat'iy va qat'iy bo'limgan analogiya, qat'iy bo'limgan analogiya yo'li bilan xulosa chiqarishda ehtimollik darajasini kamaytirish, haqiqatga yaqinlashtirish shartlari. Bilishda analogiya orqali xulosa chiqarishning ahamiyati. Bozor munosabatlari sharoitida modellashtirish usulining mantiqiy asosi. Iqtisodiyot va soliqda analogiya orqali xulosa chiqarishdan kengroq foydalanishning o'rni va roli.

15-mavzu. Estetika fanining predmeti va vazifalari.

«Estetika» fanining predmeti va vazifalari. Hozirgi zamon fanlar strukturasida estetika. Jamiyat taraqqiyotida estetika fanining o'rni. "Estetika"- fanining falsafiy fanlar rivojida tutgan o'rni. «Estetika» fanining kelib chiqishi va rivojlanishidagi bosqichlar. Sharq mutafakkirlari ta'limotida estetika. «Estetika» fanining nazariy va metodologik asoslari. Ilmiy estetika qonuniyatlarining inson va jamiyat taraqqiyoti uchun o'rni. Yoshlar tarbiyasida estetika fanining tutgan o'rni.

Qadimgi dunyo taraqqiyotida estetik qarashlar. Uyg'onish davri estetikasi. Estetik tafakkur taraqqiyotining O'rta asrlardagi o'rni. Markaziy Osiyo mutafakkirlari estetika haqida. Amir Temur va temuriylar davrida estetik qarashlar. Navoiy, Bobur, Ulugbeklarning estetik qarashlari. XIX-XX asrlarda Markaziy Osiyodagi estetik qarashlar.

- Vijdon va burch o'z-o'zini axloqiy nazorat qilish regulyatori (vositasi) sifatida.
- Axloqiy munosabatlar va axloqiy ong.

II. MA'LUMOT-AXBOROT MATERIALLAR

Guruhlarda ishlash tartibi

Javoblar 5 balli tizimda baholanadi.

- to'g'ri javob-5
- qo'shimcha-4 b
- luqma-3 b
- noto'g'ri javob-2. b
- javob yo'q-1 b

*oxirgi ballar talabalarda mustaqil fikr bildirish va bahs-munozaralarda qatnashish uchun xizmat qiladi.

III. O'Z-O'ZINI NAZORAT QILISH UCHUN MATERIALLAR

3.1 Mustaqil ish uchun vazifa:

- Berilgan savollar asosida amaliy mashg'ulotga tayyorgarlik ko'rib kelish
Amaliy mashg'ulot savollari.

16.2 Bilimlarni chuqurlashtirish va mustahkamlashga asoslangan amaliy mashg'ulot bo'yicha reja topshiriq va o'quv uslubiy hujjat

Amaliy mashg'ulot rejasi:

1. Siyosat va huquq, siyosiy va huquqiy munosabatlар, demokratik jamiyat tushunchalarining mohiyati va mazmuni.
2. Totalitarizm oqibatlari va demokratik jamiyat siyosati.
3. O'zbekiston Konstitusiyasi va umuminsoniy demokratik qadriyatlar ustuvorligini ta'minlash.
4. Jamiyat hayotining barcha jabhalarini erkinlashtirish O'zbekiston siyosatining ustuvor tamoyili.

Mashg'ulotning

maqsadi:

Siyosiy hayotning demokratlashuvi va O'zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlarning ustuvor yo'nalishlari mazmunini talabalar ongiga yetkazish.

Talabaning o'quv faoliyati natijalari:

- O'zbekistonda mustaqillika erishgandan so'ng demokratik jarayonlarning mohiyatini tushuntiradi.
- Jamiyat siyosiy hayotining falsafiy jihatlarini tahlil etadi.
- Siyosatning jamiyat iqtisodiy va ma'naviy hayotiga ta'siri, oqibatlari hamda sabablarini tushunib yetadi.

Mustaqil o'rganish uchun topshiriqlar:

1. Ma'ruza matni bilan tanishib chiqing va savollarga javob bering.
Eslatma: 4.1, 4.2.-ga qarang.
2. O'quv hujjatlar bilan tanishib chiqing.
Eslatma: 1.1., 1.2., 1.3, 1.4., 1.5.-ga qarang.
3. O'quv topshiriqlar bilan tanishib chiqing.

Eslatma: 2.1, 2.2. -ga qarang.

Nazorat shakli: Og'zaki nazorat, savol-javob va blis so'rov	Maksimal ball: 0,5 b. Talabaga qo'yilgan ball: _____	O'qituvchi imzosi: _____
---	---	---------------------------------

I. MA'LUMOT-AXBOROT MATERIALLAR

2.1 «Bahs-munozara» ishtirokchisiga ESLATMA

Munozara muammoni hal etish yoki uni tushunish uchun o'tkaziladi. O'zaro munosabatlarni hal etish ta'qiqlanadi.

- Boshqalar ham gapirishi uchun uzoq so'zlama.
- Fikrlarni o'ylab, his-hayajonga berilmay, maqsadga erishish uchun bayon etish.
- Opponent yondoshuvini tushunish va uni inobatga olishga harakat qilish.
- Opponentlar bildirgan fikrlarni o'zgartirmasdan, buzmasdan madaniyatli tarzda inqoriy fikrlarni bayon etish.
- Mavzu bo'yicha so'zlashish.
- Biron bir ishtirokchiga yon bosish uchun yoki qarshi chiqish uchun sun'iy fikr bildirma.

2.2. Bahs-munozara amaliy mashg'ulotining rollar yo'riqnomasi

Boshlovchi-mulohazalarni boshqaradi, tushuncha va atamalarni to'g'ri qo'llanishi va asosli fikrlar bildirilishini kuzatadi

Opponent resenzent-eshitilgan ma'ruza yuzasidan tahliliy fikr-mulohaza bildiradi, unga baho beradi. Ma'ruzani kamchiliklari va xatolarini sharhlab va asosli ravishda tuzatishlar kiritadi.

Tanqidchi (login)- ma'ruzachi va opponent yoki resenzent chiqishlarini qayd qiladi, xatolarini to'g'rileydi va tuzatishlar kiritadi.

Psixolog – guruhiba maxsulli muloqot o'tishini ta'minlaydi, bahs-munozarani to'qnashuvga aylanib ketishiga yo'l qo'ymaydi.

Ekspert – butun bahs-munozaraga baho beradi, ishlab chiqilgan fikr, xulosalarni va ishtirokchilar faolligini belgilab beradi.

II. O'Z-O'ZINI NAZORAT QILISH UChUN MATERIALLAR

2.1. Mustaqil ish uchun vazifa:

1. Keyingi mashg'ulotda bo'ladigan «Jahon sivilizasiyasi va O'zbekiston istiqbolining falsafiy masalalari» mavzusiga ma'ruza matni va qo'shimcha adabiyotlar asosida tayyorlanib kelish.

17- Mavzu: Jahon sivilizasiyasi va O'zbekiston istiqbolining falsafiy masalalari.

Hamkorlikda o'qitish texnologiyasi asosida tashkil etilgan amaliy mashg'ulot bo'yicha reja topshiriq va o'quv-uslubiy hujjatlar

Amaliy mashg'ulot rejasi:

1. Jahon sivilizasiyasining hozirgi davri va rivojlangan mamlakatlar taraqqiyoti.
2. Mustaqil va erkin taraqqiyot jahon sivilizasiyasiga qo'shilish yo'li.
3. O'zbekistonda jahon tarixini o'rghanishga sivilizasion yondoshuvning dolzarbligi.
4. O'zbekistonning o'ziga xos rivojlanish yo'li va taraqqiyotning o'zbek modeli to'g'risida I. Karimov nazariyasi.
5. O'zbekistondagi iqtisodiy islohotlar.
6. XXI asrda O'zbekiston taraqqiyotining muhim xususiyatlari.

**Mashg'ulotning
maqsadi:**

O'zbekistonda amalga oshirilgan siyosiy, ijtimoiy, madaniy sohalardagi yutuqlar va ularning sabablari to'g'risida mustaqil bilim va fikrni shakllantirish.

Talabaning o'quv faoliyati natijalari:

- O'zbekiston barcha sohalarda olib borgan siyosatning mohiyati to'g'risida tushuncha olinadi.
- «Inson manfaatlari ustuvorligini ta'minlash – barcha islohot va o'zgarishlarimizning bosh maqsadidir» nomli Prezident ma'rzasining mazmuni tahlil etiladi.

- Ma'naviy sohada olib borilgan islohotlarning tub mohiyati tahlil etiladi.

Mustaqil o'rganish uchun topshiriqlar:

1. Ma'ruza matni bilan tanishib chiqing va savollarga javob bering.
Eslatma: 4.1, 4.2.-ga qarang.
2. O'quv hujjatlar bilan tanishib chiqing.
Eslatma: 1.1., 1.2., 1.3, 1.4., 1.5.-ga qarang.
3. O'quv topshiriqlar bilan tanishib chiqing.
Eslatma: 2.1, 2.2. -ga qarang.

<i>Nazorat shakli:</i> Og'zaki nazorat, savol-javob va blis so'rov	<i>Maksimal ball:</i> 0,5 b. <i>Talabaga qo'yilgan ball:</i> _____	<i>O'qituvchi imzosi:</i> _____
--	---	--

I. MA'LUMOT-AXBOROT MATERIALLAR

1.1 «Insert» texnikasi jadvali

	belgilar			
Ma'ruza rejasiga savollar raqamlari	V	q	-	?
1				
2				
3				

*Izoh

(V)- buni bilan

(q)- yangi ma'lumot

(-)- men bilgan narsaga zid

(?)- tushunarsiz Menga qo'shimcha ma'lumot zarur.

II.O'QUV TOPSHIRIQLAR

2.1. O'quv vazifasi

MA'RUZA-ANJUMAN DARSI UCHUN MA'RUZALAR MAVZULARI

- O'zbekiston tashqi siyosatining asosiy tamoyillari-jahon hamjamiyati sari dadil qadam.
- Mamlakatimiz xalqaro tashkilotlarning teng huquqli a'zosi.
- O'zbekistonning xalqaro iqtisodiy va madaniy aloqalari.
- O'zbekiston – xalqaro terrorizmga qarshi kurashda.

2.2. Ma'ruza-anjuman darsiga ijodiy xabar mavzulari

1. «Turkiston – umumiylar uymiz»
2. Xalqaro munosabatlardan natijalari.
3. O'zbekiston va Rossiya ittifoqchi davlatlar

2.3. Muhokama va xulosa uchun savollar:

1. O'zbekiston o'z istiqloliga erishgach, mustaqil tashqi siyosat olib borish uchun dastlab nimalarga e'tibor berildi?
2. O'zbekiston tashqi siyosatining asosiy tamoyillarini aytib bering?
3. Tashqi iqtisodiy faoliyatning erkinlashtirilishi deganda nimani tushunasiz?
4. O'zbekistonning BMTga a'zo bo'lishi va BMT Bosh Assambleyasiga 48-sessiyada Prezident I.A.Karimov nutqi mazmun-mohiyatini tushuntirib bering?
5. O'zbekistonning YuNESKO bilan aloqalari nimalarga asoslangan?
6. O'zbekistonning YeXHT bilan hamkorligi borasida nimalarni bilasiz?
7. Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi (MDH)ning tashkil topishi sabablarini tushuntiring?
8. MDH doirasidagi ko'p tomonlama hamkorlik qanday natija bermoqda?
9. MDH doirasida iqtisodiy munosabatlar rivojlanishini tavsiflab bering?
10. O'zbekistonning MDH mamlakatlari bilan ikki tomonlama hamkorliklar qanday natija bermoqda?
11. Markaziy Osiyo davlatlari o'rtaqidagi ko'p tomonlama hamkorliklarga tavsif bering?
12. O'zbekistonning Markaziy Osiyo davlatlari bilan ikki tomonlama hamkorliklariga tavsif bering?
13. Turkiston-tarixiy birlik tuyg'usini qaytadan tiklashga qaratilgan «Turkiston-umumiyligi» g'oyasini va bu boradagi harakatlarini tushuntiring?
14. O'zbekistonning Osiyo va Tinch okean havzasasi mamlakatlari bilan hamkorligiga tavsif bering?

III. MA'LUMOT-AXBOROT MATERIALLAR

3.1 Munozara o'tkazish tartibi va reglamenti

1. Anjuman raisi mavzu nomini e'lon qiladi va ma'ruzachiga so'z beradi.
2. ma'ruza vaqt - 5-10 min.
3. resenzent so'zi - 2 min.
4. opponent so'zi - 1-3 min.
5. ekspert so'zi - 1-2 min.
6. jamoa muhokamasi 5-1- min.

3.2. Munozaralar ishtirokchisiga eslatma:

- Munozara shaxsiy munosabatlarni emas, ballki ma'ruza darsiga qo'yilgan muammolarni hal qilish usulidir.
 - aniq, lo'nda, tushunarli gapirib, boshqalaga ham so'zlashga navbat berish kerak.
 - So'zlayotganda o'ylab, o'lchab, his-hayajonni jilovlab gapirish kerakki, so'zingiz nishonga borib yetsin.
 - Tanqidchingizni tushunishga harakat qiling, bir-biringizga hurmatda bo'ling.

- Munozara paytida iltifot bilan, mavzudan chetga chiqmagan holda fikringizni bayon etishga harakat qiling.
- Munozara paytida birovga yoqishga yoki kimnidir jahlini chiqarishga harakat qilmang.

3.3. Anjuman ishtirokchilarining vazifalari

Anjuman raisi – muhokamaning borishini boshqaradi, munozaraireglamenti qoidasiga qat’iy amal qiladi.

Resenzent – ma’ruzaga dolzarbligi, yangiligi, mantiqiy davomiyligi, ma’ruzaning tushunarli nutq bilan bayon etilishi, xulosa va umumlashmalarning aniq shakllanganligi kabi mezonlarga asoslanib qisqa umumiyligi ta’rif beradi.

Opponent – ma’ruzaga tanqidiy baho bergani holda, uning kamchilik va xatolarini ko’rsatib beradi va ma’ruzanini yanada yaxshilash borasidagi o’z takliflarini beradi.

Ekspert – munozaraning har bir ishtirokchisining anjumanning samarali o’tishi uchun o’z bilimi, muammoni hal qilishdagi faolligi bilan qo’shgan hissasiga baho beradi.

2.4. Munozara ishtirokchilarini baholash mezonlari(o’qituvchi yoki ekspertlar tomonidan to’ldiriladi)

Ma’ruzachi-ning ismi-sharifi	Mavzuning to’liq bayon etilishi (maks. ball)	Ma’ruzaning ravon, aniq bayon etilishi (maks. ball)	Muhokama paytida berilgan savollarga har bir aniq javob (har bir aniq javobga 1 balldan)	Jami ballar
1.				
2.				
3.				

Resenzent-ning ismi sharifi	qayd etilgan ijobjiy holatlar(har bir to’g’ri javobga 1 balldan)	Jami ballar
1.		
2.		
3.		

Opponet, muhokama ishtirokchisining ismi-sharifi	Ma’ruzaning kamchiliklarini aniqlanishi (har bir to’g’ri javobga bir balldan)	Berilgan savollar soni (har biri uchun 1 balldan)	To’ldirishlar soni (har bir to’g’ri savolga 1 balldan)	Jami ballar

--	--	--	--

18 mavzu: Istiqlol va falsafiy dunyoqarashning yangilanish muammolarini.

Hamkorlikda o'qitish texnologiyasi asosida tashkil etilgan amaliy mashg'ulot bo'yicha reja topshiriq va o'quv-uslubiy hujjatlar

Amaliy mashg'ulot rejasi:

1. Mustaqillik tushunchasi va uning mohiyati. Milliy mustaqillik.
2. O'zbekistonda milliy mustaqillik uchun olib borilgan kurashlar.
3. Milliy mustaqillikning asosiy jihatlari: siyosiy mustaqillik, iqtisodiy mustaqillik va O'zbekiston milliy mustaqilligining qo'lga kiritilishi.
4. Mustaqil O'zbekistonning o'ziga xos va o'ziga mos taraqqiyot yo'li, uning asosiy tamoyillari. Mustaqillik mafkurasi va uning mohiyati.

Mashg'ulotning maqsadi:

O'zbekistonda davlat mustaqilligini qo'lga kiritilishi va demokratik jamiyat yaratish sohasidagi bilimlarni mustahkamlash va chuqurlashtirish

Talabaning o'quv faoliyati natijalari:

- mustaqillik, istiqlol, erk, ozodlik tushunchalarining va mamlakatimizning mustaqillik yo'lidagi kurashlari, uning sabablari va bu kurashlar yo'lida berilgan qurbonlar to'g'risidagi bilimlarni chuqurlashtiriladi va mustahkamlanadi;
- 80-yillarning ikkinchi yarmidagi O'zbekistondagi sharoit va xalqning norozilik kayfiyati, mustaqillikni qo'lga kiritish uchun qo'yilgan ijtimoiy-siyosiy qadamlarning mohiyati va ahamiyati anglanadi;
- Mustaqillik sharoitida mamlakatimizda milliy davlatchilik asoslarini, huquqiy-demokratik davlatni yaratish, fuqarolik jamiyatni shakllantirishning o'ziga xos jihatlarini xarakterlaydi.

Mustaqil o'rGANISH UCHUN TOPSHIRIQLAR:

1. Ma'ruza matni bilan tanishib chiqing va savollarga javob bering.
Eslatma: 4.1, 4.2.-ga qarang.
2. O'quv hujjatlar bilan tanishib chiqing.
Eslatma: 1.1., 1.2., 1.3, 1.4., 1.5.-ga qarang.
3. O'quv topshiriqlar bilan tanishib chiqing.
Eslatma: 2.1, 2.2. -ga qarang.

Nazorat shakli:

Og'zaki nazorat, savol-javob va blis so'rov

Maksimal ball: 0,5 b.

*Talabaga
qo'yilgan ball:* _____

*O'qituvchi
imzosi:* _____

I. O'QUV - USLUBIY MATERIALLAR

1.1. TARQATMA MATERIALLAR

1-TARQATMA MATERIAL.

VATAN MUSTAQILLIGINING QO'LGA KIRITILISHI.

XXI asr bo'sag'asida Vatanimiz tarixida buyuk voqeal sodir bo'ldi. Prezident Islom Karimov 1991 yil 31 avgust kuni Respublika Oliy Kengashining navbatdan tashqari oltinchi sessiyasida O'zbekistonning davlat mustaqilligini e'lon qildi.

1 sentabrm O'zbekiston Respublikasining Mustaqillik kuni, deb belgilash tug'risida qaror qabul qilindi va xalqimizning Milliy bayrami sifatida keng nishonlanadigan bo'ldi.


O'zbekistonning davlat mustaqilligi xalqimizning uzok yillar davomida olib borgan og'ir va mashaqqatli kurashining qonuniy natijasi bo'ldi. O'zbekiston xalqi o'z mustaqilligini quvonch bilan kutib oldi va ma'qulladi. Bunga 1991 yil 29 dekabrda O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi tomonidan e'lon qilingan «O'zbekiston Respublikasining Davlat Mustaqilligini ma'qullaysizmi?» mavzuida o'tkazilgan referendum natijalari yaqqol misol bo'la oldi. Umumxalq referendumida saylov ro'yxatiga kiritilganlarning 94,1 foizi yoki 9 mln. 898 ming 707 kishi qatnashdi. O'zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligini yoqlab 9 mln. 718 ming 555 kishi yoki referendumda qatnashganlarning 98,2 foizi ovoz berdi.

«Istiklol biz uchun taraqqiyotning butunlay yangi, keng ufklarini ochdi. O'z kelajagimizni o'z kulimiz bilan yaratadigan bo'ldik. Hayotimiz va umumiyl xonadonimizni milliy manfaat va kadriyatlarimizga, umum e'tirof etilgan demokratik mezonlarga monand qilib ko'rishdek noyob tarixiy imkoniyatga ega bo'ldik»¹.

¹ Каримов И.А. «Янгича фикрлаш ва ишлаш – давр талаби». Т., «Ўзбекистон», 1997, 105-бет.

2-TARQATMA MATERIAL.

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI DAVLAT HOKIMIYATI.



O'zbekiston Respublikasida davlat bosh islohotchi hisoblanib :
Ichki siyosatda:

- Xo'jalik faoliyatini tartibga soladi.
- Mavjud ishlab chiqarish usulini iktisodiy va ijtimoiy tizimini himoya qiladi.
- Aholining siyosiy ongini shakllantiradi.
- Aholini ijtimoiy himoyalashni va huquqlarini himoyalaydi va hok.

Tashqi siyosatda:

- Xalqaro maydonda davlat manfaatlarini himoya qiladi.
- Mamlakatni tashki xavf-xatardan mudofaa qiladi.
- Xorijiy mamlakatlar bilan o'zaro manfaatli tartibdag'i munosabatlarni rivojantiradi.
- Umumbashariy muammolarni hal etishda xalqaro mehnat taksimotida ishtirok etadi.

- Siyosiy, mintakaviy, umu minsoniylik asosidagi integrasjion jarayonlarni rivojlantiradi va hok.

O'zbekistonda davlat boshqaruvi Prezidentlik respublika shakliga ega. Milliy davlatchilik an'analarini o'zida mujassamlashtirgan kuchli ijroiya hokimiyat - Vazirlar Mahkamasi faoliyat ko'rsatmoqda.

Sud tizimi besh yillik muddatga saylanadigan Konstitusiyaviy sud, Oliy sud, Oliy Xujalik sudi, Qoraqalpog'iston Respublikasi Oliy sudi va Xo'jalik sudi, Toshkent shahar, viloyat, tuman, shahar va tumanlararo jinoyat va fuqarolik sudlari, viloyat xo'jalik sudlaridan iborat.

3-TARQATMA MATERIAL.

«KUCHLI DAVLATDAN- KUCHLI FUQAROLIK JAMIYAT SARI» TAMOYILI.

Bunda nimalar nazarda tutilmoqda?

Avvalambor, hokimiyat vakolatlarining ma'lum bir qis mini markazdan mahalliy hokimiyat organlariga o'tkazishga qaratilgan mavjud qonun va huquqlari hujjatlarni bir tizimga keltirish va ularga qo'shimcha tarzda yangilarini ishlab chiqish.

Yana bir muhim vazifa o'zini—o'zi boshqarish organlari – mahalla, mahalla qo'mitalari va qishloq fuqarolik yig'inlarining roli hamda vakolatlarini amalda kuchaytirish lozim.

Ikkinchidan - siyosiy partiyalar va fuqarolik institutlarining davlat ahamiyatiga molik eng muhim qarorlarini qabul qilishdagi roli va ta'sirini tubdan kuchaytirish.

Shu munosabat bilan partiyalar aholi o'rtasida obro'—e'tibor qozonish maqsadida izchil ish olib borishi, siyosiy tajriba orttirishi, siyosiy yetuklikka intilishi va eng muhimi, moliyaviy mustaqillikka erishish, jamiyatda o'z o'rnini topish va o'zining doimiy saylovchilariga tayanish uchun faol harakat qilishi kerak.

Mamlakatimizda shakllanayotgan fuqarolik jamiyatining asosiy institutlari bo'lgan nohukumat va jamoat tashkilotlarining nufuzi va ta'sirini oshirishga katta e'tibor berayotganimizni ham alohida ta'kidlamoqchiman.

Hech shubhasiz, mening nazarimda, deputatlar korpusi, siyosiy partiyalar va nodavlat, nohukumat jamoat tashkilotlarining jamiyatda obro'—e'tibori ortib borishi, mavqeい mustahkamlanishi bilan, ular davlat va hokimiyat tuzilmalari faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratining asosiy vositasiga aylanadi.

(Prezident I.A.Karimovning 2005 yil 28 yanvarda O'zR Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlisidagi ma'rzasidan).

II.O'QUV TOPSHIRIQLAR

O'quv vazifasi

Nº1 ekspert varaqasi

1. Sobiq ittifoqda 20 asrning 80-yillaridagi qanday jarayonlar O'zbekistonda mustaqillik uchun kurashlarni yanada jonlantirdi?
2. Davlatimiz mustaqilligiga erishish imkoniyatini yaratgan omillar nimalardan iborat edi?

Nº2 ekspert varaqasi

1. Mustaqillik xalqimizga qanday imkoniyatlar berdi?
2. Taraqqiyotning «o'zbek modeli» qanday tamoyillarga asoslanadi?

Nº3 ekspert varaqasi

1. O'zbekistonda huquqiy davlat, fuqarolik jamiyati qurilishida qanday tamoyillar, tajriballar va qadriyatlarga tayaniadi?
2. O'zbekistonda boshqaruvning qanday tizimiga amal qilinmoqda?

«*O'zbekiston Respublikasi davlat ramzları to'g'risida*»gi konseptual jadvalni to'ldiring.

Davlat ramzi nomi	qabul qilingan payti	Asosiy belgilari	Ta'rifi
Konstitusiya			
Bayroq			
Gerb			
Madhiya			
Valyuta			
Boshqalar			

Nº4 ekspert varaqasi

- O'zbekistonda milliy davlat qurish yo'lida qanday tadbirlar amalga oshirildi?
- «Sudlarning mustaqillikka erishuvi» deganda nimani tushunasiz?
- Mamlakatimizda Vatan xavfsizligini ta'minlash borasida qanday ishlar amalga oshirildi?
- Prezident I.A. Karimovning «Bizning bosh maqsadimiz-jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizasiya va isloh

etishdir» nomli kitobida huquqiy demokratik davlat barpo etish va unga erishish borasida qanday vazifalar belgilab berildi?

Nº5-ekspert varaqasi

- Mamlakatimizda nima sababdan fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlariga muhim ahamiyat berilmoqda?
- Respublikamizda qanday partiyalar, harakatlar va jamiyat tashkilotlari faoliyat ko'rsatmoqda?
- Respublikamizdagi ommaviy axborot vositalari va ularning demokratik o'zgarishlardagi o'rni haqida fikringizni bildiring?

Respublikamiz parlamenti va rivojlangan davlatlar parlamentlarini solishtirib umumiy va o'ziga xos tomonlarni aniqlovchi konseptual jadvalni to'ldiring.

Parlament nomlanishi	Tuzilishi va nomlanishi	Vakolatlari	Vakolat muddati	Saylov tartibi
O'zbekiston parlamenti				
AQSh parlamenti				
Buyuk Britaniya parlamenti				
Germaniya parlamenti				
Rossiya parlamenti				
Yaponiya parlamenti				

III. MA'LUMOT-AXBOROT MATERIALLAR

3.1 Guruhlarda ishlash tartibi

Ish tartibi va reglamenti

1. Guruhlardagi ichki vazifalarni tushuntirish – 1-2 min.
- 2..Guruh ishi natijalari namoyish etuvchi materiallani jamoa bo'lib muhokama etib tayyorlash –12-15 min.
3. Namoyish materiallari prezентasiyasini o'tkazish –5 min.
4. Boshqa guruhlar qatnashishini baholash va o'qituvchiga ma'lum qilish.

3.2. Guruh ishini baholash mezonlari va ko'rsatkichlari

Guruh	Savollarni to'liq yoritilishi	Bayon etishning aniq va tushunarli ekanligi	Ta'limdi tashkil etish, ko'rgazmalili k	Guruh a'zolarining faolligi	Jami ballar

IV. O'Z-O'ZINI NAZORAT QILISH UCHUN MATERIALLAR

4.1. Nazorat savollari

1. O'zbekiston Oliy Kengashining nechanchi sessiyasi davlatimiz mustaqilligini e'lon qilgan?
2. "O'zbekiston Respublikasining Davlat mustaqilligini ma'qullaysizmi?" mavzuida qachon referendum o'tkazildi?
3. Mustaqillikka erishganimizdan keyin davlatimiz oldida qanday ma'suliyatli vazifa turar edi?
4. Islohotlarni inqilobiy sakrashlarsiz amalga oshirish bozor iqtisodiyotiga o'tishda nechanchi tamoyil hisoblanadi?
5. O'zbekiston Respublikasi bayrog'i O'zR Oliy Kengashi (12 chaqiriq) ning nechanchi yilda bo'lgan qaysi sessiyasida qabul qilingan?
6. O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi necha bo'lim, necha bob va necha moddadan iborat?
7. Mustaqil O'zbekiston davlatining, uning xalqining bosh maqsadi nima?
8. O'zbekistonda qachondan boshlab ikki palatali parlament faoliyat ko'rsata boshladi?
9. "Kuchli davlatdan kuchli jamiyat sari" tamoyili birinchi navbatda nimani anglatadi?
10. "Fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari" deyilganda birinchi navbatda qaysi jamoa uyushmalari tushuniladi?
11. 2004 yil oxiri va 2005 yil boshida bo'lib o'tgan ikki palatali parlament saylovlarida qaysi siyosiy partiya g'olib bo'ldi?

4.2. Mustaqil ish uchun vazifalar:

1. «Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot pirovard maqsadimizdir» mavzusida tarixiy insho yozish.
2. O'tilgan mavzu yuzasidan test savollari tuzish va ishlab kelish.
3. Ma'ruza matni asosida keyingi darsga tayyorlanib kelish.

4.3. MILLIY MAFKURANING MOHIYATI

Milliy istiqlol mafkurasi O'zbekistonning mustaqillikka erishish haqidagi siyosiy, ilmiy, nazariy, tarixiy, falsafiy, badiiy va diniy qarashlar majmui, xalqni keljakka ishonch, e'tiqod ruhida tarbiyalovchi - g'oyaviy qurol, ularni birlashtiruvchi omil hisoblanadi. Uning asosiy mohiyati quyidagilardan iborat:

- xalqimizning azaliy an'analariga, udumlariga, ruhiyatiga, tiliga, diniga mos - g'oyalar asosida odamlar ongiga keljakka ishonch, mehr oqibat, insof, sabr-toqat,adolat, ma'rifat tuyg'ularini singdirish;
- ushbu mafkura orqali xalqimizda o'zining qudrati va himoyasiga suyangan holda, umuminsoniy qadriyatlargacha asoslanib, jahon hamjamiyatida, ilg'or davlatlar orasida teng huquqli va munosib o'rin egallashga intilish hissini tarbiyalash;
- sog'lom, ma'naviy boy, komil avlodni shakllantirish;
- milliy istiqlol mafkurasining negizini vatanparvarlik, erkinlik, milliy iftixor, insonparvarlik, baynalmilallik kabi xususiyatlar tashkil etadi. Mustaqilligimizni mustahkamlashdagi o'tkazilayotgan islohotlar orasida ta'lim sohasidagi islohot alohida ahamiyat kasb etadi.

V. O'Z-O'ZINI NAZORAT QILISH UCHUN MATERIALLAR

5.1 Mustaqil ish uchun vazifa

1. «Milliy g'oya millat bayrog'i» mavzusida tarixiy esse yozish.
2. «Falsafa» fani bo'yicha yakuniy nazorat sinoviga munosib tayyorgarlik ko'rish.

Falsafa - yunoncha phileo - sevaman, Sophia -donolik degan ma'noni anglatadi. Insoniyat tarixidagi eng qadimiy ilmlardan biri. Olam va uning yashashi, rivojlanishi va taraqqiyoti, hayot va inson, umrning mohiyati, borliq va yo'qlik kabi ko'plab muammolar haqida babs yuritadigan fan.

Dunyoqarash - Inson o'zini va dunyoni zaruriy ravishda anglashi, unga baho berishi, xulosa chiqarishi bo'lib, dunyoni inson ongidagi uziga xos in'ikosidir. Insonning uziga va uni kurshab turgan borliqka bo'lган munosabatlarini ifodalaydigan kunikmalari, malakalari, bilimlari hamda dunyoni amaliy va nazariy uzlashtirish hamdir.

Mif - yunoncha mifhos so'zidan olingan bo'lib, afsona, rivoyat, xikoyat kabi ma'nolarini anglatadi. Ibtidoiy davr kishilari ongi va tushunchasida inson, tabiat, jamiyat va koinotning paydo bo'lishi bilan bog'liq voqealar, shuningdek, tabiat va jamiyat hodisalarining aks etishidir.

Mifologik dunyoqarash - Ijtimoiy taraqqiyotning boshlang'ich bosqichlariga xos bo'lib, dunyoni tushunishning oddiy usuli, xayoliy in'ikosidir.

Din - arabcha - ishonch, ishonmok demakdir. Borliqni yaratuvchi va boshqaruvchi, adolatning yuksak namunasi, moddiy olamga xos bo'lman va ayni vaqtida barkamollikning oliy ko'rinishi sifatida tushuniluvchi oliy mavjudotga, ya'ni Xudoga nisbatan munosabat, tasavvur, urf-odat va marosimlar majmuidir.

Diniy dunyoqarash - Olamdagi voqealari sabablarini ilohiy kuchlar, oldindan belgilangan maqsadlar bilan bog'lab tushunishdir.

Monizm (yunoncha — monos, ya'ni yakka ma'nosini anglatadi) — olamning asosi yakayu-yagona sababga, bitta asosga ega deb ta'lim beradigan falsafiy ta'limotdir.

Dualizm (lotin tilida dua, ya'ni ikki degan ma'noni ifodalaydi) — olamning asosida ikkita asos, ya'ni modda va materiya bilan birga ruh va g'oya, yotadi deyuvchi qarash.

Plyuralizm (lotin tilida plural, ya'ni ko'plik degan ma'noni anglatadi) — olamning asosida ko'p narsa va g'oyalalar yotadi deb e'tirof etadigan ta'limotdir.

Materializm — olamning asosida materiya, ya'ni moddiy narsalar yotishini e'tirof etadigan, moddiylikni ustuvor deb biladigan ta'limot.

Idealizm — olamning asosida ruh yoki g'oyalalar yotadi, dunyo voqeligi va rivojida g'oyalarni ustuvor deb ta'lim beradigan falsafiy ta'limot.

Antik falsafa - qadimgi davrda eramizdan avvalgi 8 asrda Yunonistonda, eramizdan avvalgi 2 asrda Rim jamiyatlarida shakllanib, eramizning 6 asriga qadar rivojlanib kelgan falsafiy ta'limotlar umumlashmasi.

Vedalar - diniy mazmunga ega adabiyotlar. Ba'zi taxminlarga ko'ra, deyarli to'qqiz asr davomida Hindiston yarim orolida yashab kelgan qadimiy xalq va elatlar tomonidan yaratilgan.

Upanishadalar - sirli bilimlar deb atilib, vedalarning falsafiy qismidir. U ma'lum bir kitob yoki falsafiy risolalar shaklida bo'lmay, balki turli mavzularda, turli davrlarda asosan noma'lum mualliflar tomonidan yaratilgan matnlar to'plami. Har bir matn u yoki bu muallifning falsafiy mushohadalarining qisqacha bayonidan iborat.

Eley maktabi - pifagorchilarning ittifoqi kabi Elladaning Eley shahrida yuzaga kelgan. Bu maktabning asosiy namoyondalari Ksenofan, Parmenid, Zenon va Melisslardir. Eley maktabi ta'limoti qadimgi Yunon falsafasining shakllanishida, uning kategoriyalari, jumladan, borliq kategoriyasining rivojida yangi qadam hisoblanadi. Ioniyaliklarda borliq jismiy, pifagorchilarniki esa matematik bo'lsa, Eley maktabida u falsafiydir. Eleyliklar birinchilar katorida borliq va tafakkur o'rtasidagi munosabat masalasini qo'ydilar. Antik falsafa shakllanishining yakuni Eley maktabi bilan tugallanadi.

«**Veda**» — diniy kitoblar, astika — «Veda»ning muqaddasligini tan oluvchi, nastika — uning muqaddasligini tan olmaydigan maktablar.

Dao — tabiat qonuni, Si — borliqning asosida yotgan besh unsur, yan — yorug'lik kuchi, in — zulmat kuchi, metafizika — qadimgi yunonistonliklar fikricha, borliqning asosini o'r ganadigan dastlabki falsafiy maktab.

Anxra Manyu - Zardushtiylikda yovuz kuchlar, zulmat va o'lim boshlig'i, Axuramazdaning dushmani, inson ruhiyatidagi salbiy hissiyotlarning timsoli. Olamning yagona hukmdori bo'l mish Vaqt bir-biriga zid ikki buyuk qudrat Axuramazda va Anxra Manyu ruhlarini vujudga keltiradi. Borliq ana shu kuchlar tomonidan navbatma-navbat boshqarilib turiladi.

Axura Mazda - «Avesto» ta'limotida zulm va qabohat egallagan dunyoga, shu jumladan, umidsizlikka uchragan kishilar qalbiga yorug'lik, ezgulik nurini taratuvchi, kishilarni o'z kuchiga ishonchini mustahkamlashga, kelajak abadiy hayotga istagini kuchaytiradigan va unga yunaltiruvchi qudratli kuch sifatida madx qilinadi.

Moniy - Moniy Ibn Fatak monizm ta'limotining asoschisi. Naqqosh va rassom. Markaziy Osiyo, Eron, Hindiston buylab safar qilib, zardushtiylik, buddaviylik, braxmanlik kabi turli diniy ta'limotlar bilan tanishadi. Dunyo, ziyo va zulmatning abadiy kurash maydoni, insonning vazifasi esa, yovuzlikni uzil-kesil yo'q kilish uchun ezgulikka ko'maklashishdir. Bu g'oya Moniy axloqiy ta'limotining asosini tashkil etadi.

Mazdakiylik - diniy falsafiy ta'limot. Asoschisi Mazdak (470-529). Mazdak xalq ommasining zardushtiylik koxinlari va zodagonlariga qarshi kurashini boshqargan. Mazdak ta'limotiga binoan, olamda bo'ladigan jarayonlar ongli va biror maqsadni ko'zlab harakat qiluvchi ezgulik, yoruglik manbai bilan ko'r-ko'rona va tasodifiy harakatlanuvchi korong'ilik manbai o'rtasidagi kurashdan iborat. Bu kurash «yaxshilik»ning «yomonlik» ustidan mukarrar galabasi bilan tugallanadi.

“**Fiqh**” - musulmon qonunshunosligi.

“**Tajvid**” - Qur'on oyatlarini yoddan to'g'ri o'qish qoidalari.

“**Sohibqiron**” - ikki sayyora: Zuhul va Mushtariylarning yaqinlashuv (qiron) jarayoni egasi. Aynan shu qiron jarayonida dunyoga kelgan farzandlargina bunday yuksak nomga sazovor bo'lган.

Nominalizm - lotincha nomina - ism, nom ma'nosini anglatadi. Sxolastik falsafa. Nominalistlar fikricha, universaliylar haqiqatda emas, balki fakat tafakkurda mavjud. O'rta asrlarda nominalizm sxolastikaning realizm bilan munozarasida kelib chikkan edi. Lekin nominalizmning asosiy tezisi

qadimgi yunon faylasuflari Antisfen va Stoiklar tomonidan ilgari surilgan bo'lib, ular Platon g'oyalarini tanqid qilgan edilar. Rosselin tomonidan asoslanganidan keyin mustakil okimga aylandi. U faqat yakka narsalargina real mavjud, universaliylar esa narsalarning nomi, deb ta'kidlagan.

Realizm - Realistlar Anselm Kenterberiyskiy, Foma Akvinskiy umumiy ob'ektlar, tushunchalar yo alohida insonda, aqldan tashqarida, bu narsalarga qadar yoki individual narsalarning o'zlarida, ularning ruhiy asoslarini tashkil etgan holda mavjud, deb hisoblaydilar. Cherkov realizm nuqtai nazaridan, turli aqidalarini, masalan Odam Atoning gunohkor bo'lганligi haqidagi affsonani falsafiy asoslash uchun foydalandi.

Apogetika - yunoncha apogetikos - himoya kilish ma'nosini anglatadi. Ilohiyotda tafakkur dalillari yordamida diniy ta'limotni himoya kilish va oqlash bilan bog'liq bo'lган soha. Dinning mohiyatini aqidalar tizimi xususiyatlari, axloqiy prinsiplari, ijtimoiy hayotdagi roli va ahamiyatini tahlil qilish asosida uni falsafiy materialistik va genetik tanqiddan himoya qilishni o'z oldiga asosiy vazifa qilib qo'yadi.

Patristika - lotincha patris - demakdir. 2-8 asrlarda xristian ruhoniylarining ilohiy, falsafiy, siyosiy-sosiologik qarashlari majmuuni ifoda etuvchi tushuncha. Antik davrning inqirozi yillarda gnostisizmga qarshi kurash jarayonida vujudga kelgan.

Sxolastika - diniy falsafaning asosiy yo'naliшlaridan biri. Mazkur ta'limot ilohiyotga asoslanib, diniy akidalarga falsafiy yondashgan. Sxolastika aslida, urta asrlarda garbiy Yevropada rivojlangan. Birok keyinchalik, mazkur termin Shark falsafasiga nisbatan ham ishlatila boshlandi. Sxolastika antik falsafadan, xususan, Prokl ta'limotidan ko'p bahramand bo'lган. 13-14 asrlarda Sxolastikada ikkiyoqlama haqiqat nazariyasi aql va iymon uyg'unligi vujudga keldi. Renessans davrida sxolastik an'analarning ayrim jihatlari yanada rivojlandi. Sxolastikada bilimning ikki tomoni - inson ongi orqali hosil bo'ladigan bilim hamda mushohada orqali paydo bo'ladigan bilimni e'tirof qilib, ularni dialektik alokadorligini xisobga olmaydi.

Rasionalizm - lotincha rationalis, ratio - aql degan ma'noni anglatib, aqlga odamlarning bilish va xulqining asosi, deb qaraydigan falsafiy yo'naliш. Rasionalizm atamasi 19 asrning o'rtalarida falsafaga kirib keldi. O'rta asr sxolastikasi va diniy dogmatizmga zid ravishda butun olamning sababiy bog'langanligi g'oyasini ilgari surdi.

Strukturalizm (asosiy vakillari Levi — Stross va Fuko) bilishda strukturaviy usulning ahamiyatini mutlaqlashtiradi. Bu oqim tarafdorlari narsa va hodisaning strukturasini bilish uning ob'ektiv mohiyatini bilish demakdir, deb hisoblaydilar.

Pragmatizm - yunoncha pragmatis so'zidan olingan bo'lib «ish, xatti-harakat» degan ma'noni anglatadi.

Asoschisi - Charlz Sanders Pirs, undan sung U.Jeyms, J.D'yui, F. Shiller tomonidan rivojlantirilgan.

Tushuncha va e'tiqodning ma'nosini aniklashga yordam beradi, g'oya va tushunchalar fakat tadkikotchi tomonidan tekshiruvdan o'tgandan keyingina muayyan ahamiyatga ega bo'ladi.

Ekzistensializm - lotincha «ekzistensiya» yoki inglizcha «ekzistense» so'zidan olingen bo'lib «mavjudlik», «mavjud bo'lmoq», degan ma'noni anglatadi. Dastlab vatani Rossiya bo'lgan, (Berdyayev, Shestov) keyinchalik Germaniyada keng rivojlandi. (Xaydegger, Yaspers, Buber) Asl ma'noda XX asr ma'naviy hayotining ehtiyojlariga javob sifatida yuzaga keldi va rivojlandi. O'ta ziddiyatlari va murakkab xususiyati: kishi, o'zining mavjudligini chuqr ma'naviy ziddiyat, ruhiy tushkunlik holatidagina anglay oladi.

Mohiyati: Inson haqidagi falsafadir tarixiy cheklangan falsafiy yo'nalishdir.

Germenevtika — qadimgi yunon afsonalaridagi xudolarning xohish va irodasini insoniyatga tushuntirib berish uchun yerga yuborilgan elchisi — Germes nomi bilan ataladi. Demak, germenevtika — tushunish, tushuntirish, tahlil etish g'oyalariga asosiy diqqatini qaratadi.

Ontologiya - borliq haqidagi ta'limot. Falsafaning borliq to'g'risidagi fundamental tamoyillarini o'r ganuvchi sohasi.

Borliq - Bir butun dunyo va undagi narsa va hodisalardan tortib, inson hayoti, ongi, kishilar faoliyatining barcha ob'ektiv va sub'ektiv sharoitlari, hatto jamiyatda sodir bo'ladigan butun jarayonlardan iborat hamma realliklarni o'z ichiga oladi. Falsafiy kategoriyalar ichida boshlang'ich kategoriyadir.

Substansiya - lotincha mohiyat ma'nosini anglatadi. Falsafada narsalarning mohiyati to'g'risidagi tushuncha.

Materiya - Moddiy ob'ektlarga xos xususiyatlarni umumiy tarzda ifodalash uchun qo'llaniladigan falsafiy tushuncha bo'lib, ob'ektiv borliqni real shaklini ifodlaydi.

Dialektika - Dunyoni bilishning umumiyl usulidir.

Sofistika - yunoncha - ataylab xato asoslar asosida ko'p ma'noli suzlarga asoslanib fikr yuritish - bilib turib, xato asoslardan yulgon xulosa chiqarishdir.

Eklektika - yunoncha tanlayman. Turli qarama-qarshi nazariyalarni, qarashlarni aralash-kuralash qilib yuboruvchi tafakkur usuli.

Dogmatika - yunoncha kotib kolgan ma'nosini anglatib, konkret shart-sharoitlarni hisobga olmay qo'llaniladigan qoida, prinsip, fikrdir.

Yakkalik - alohida narsa va hodisagagina xos bo'lib, bu narsa va hodisani boshqa narsa va hodisadan fark qiluvchi, takrorlanmaydigan, individual belgi va xususiyatlar birligidir.

Mohiyat - narsa va hodisalarning ichki, eng muhim o'zaro bog'lanishlari, shu bog'lanishlarning qonuniy aloqadorliklarini ifodalaydi.

Hodisa - narsa va jarayonlarni tashkil etuvchi tomonlar, xususiyatlar va bog'lanishlarning namoyon bo'lish shaklidir.

Mazmun - narsa yoki hodisani aynan shu narsa yoki hodisa sifatida ifodalovchi jarayonlar, muhim elementlar va o'zgarishlarning majmuidir.

Shakl - mazmunning mavjudlik usulini, uning strukturasini ifodalovchi, narsa va hodisalarning ichki va tashqi tomonlarining birligidir.

Sabab - bir hodisadan oldin kelib, uni vujudga keltirgan hodisa yoki hodisalar guruhidir.

Okibat - sababning bevosita yoki bavosita ta'siri bilan yuz beradigan hodisadir.

Zaruriyat - muayyan sharoitda qat'iy ravishda kelib chikadigan voqeа yoki hodisadir.

Tasodif - ayni sharoitda yuz berishi ham, yuz bermasligi ham mumkin bo'lган hodisa yoki voqeadir.

Voqelik - real mavjud bo'lган, yashab turgan narsa va hodisalardir.

Imkoniyat - yuzaga chiqmagan voqelikdir.

Sistema - borliqdagi o'zaro bog'liq, muayyan tartibdagi bir-biriga ta'sir va aks ta'sir qilib turuvchi narsalar, hodisalar va jarayonlarning qonuniyatli birligidir.

Struktura - sistemani tashkil etgan narsalar, hodisalar va jarayonlarning tartibi, tuzilish, tarkibi, joylashishi va ifodalananishidir.

Element -sistema strukturasini tashkil qilgan, nisbiy mustaqillikka ega bo'lган tuzilmadir.

Gnoseologiya - yunoncha gnosis - bilim, ilm; logos - ta'limot, nazariya demakdir. Falsafaning tarkibiy qismi, bilish nazariyasi, bilishning umumiyligi konuniyatlar, usullari to'g'risida bahs yurituvchi falsafaning alohida sohasi.

Ong - yuksak darajada tashkil topgan materiyaning ya'ni inson miyasining maxsuli bo'lib, uning xususiyati voqelikni aks ettirishdan iboratdir. Ong - akl, tafakkur, falsafadagi markaziy kategoriyalardan biri.

Ongsizlik - ongning genetik jihatidan talqini. Ongsizlik birlamchiligin bildirib u o'ziga xos xususiyatga ega ekanligini, inson faoliyati va hatti-harakatida muayyan darajada rol o'ynashini tan olishni taqozo etadi.

Ruh - ma'naviy - ruhiy, nomoddiy ibtidoni ifodalovchi falsafiy tushuncha.

Bilish - insonning o'zining qurshagan dunyoga bo'lган munosabatlaridan biridir.

Hissiy bilish - inson bilishining dastlabki bosqichi bo'lib, miyada predmet va hodisalarning belgilari, signallari va hissiy obrazlarining hosil bo'lischidir.

Mantiqiy bilish - inson borliqni aqliy bilishidir.

Haqiqat - inson bilimlarida borliqning to'g'ri in'ikos etishi, predmet va hodisalar asli qanday bo'lsa ularni inson o'z miyasida huddi shunday in'ikos ettirgan bilimlaridir.

Nisbiy haqiqat - borliqdagi narsa va hodisalar to'g'risidagi taxminan to'g'ri, lekin to'liq bo'lмаган, bilish jarayonimizda tuzatilib, to'ldirilib boriladigan bilimlardir.

Mutlaq haqiqat - borliqdagi narsa va hodisalar haqidagi to'liq aniq mukammal bilimlardir.

Kuzatish - harakat o'zgarish va rivojlanishdagi ma'lum ob'ektni tabiiy sharoitda u qanday bo'lsa, shu holicha diqqat bilan, belgilangan vaqt ichida, ma'lum maqsad asosida ko'zdan kechirib borishdir.

Eksperiment - o'rganilayotgan predmet yoki hodisani o'z holicha, lekin sun'iy yaratilgan sharoitda kuzatishdir.

Analiz - bir butunni qismlarga, bo'laklarga, tomonlarga va elementlarga ajratib, ularning har biri nima ekanligini bilishdir.

Sintez - analiz tufayli ajratilgan bo'laklar tomonlar, qismlar, elementlarni o'zaro biriktirib, ularni bir butun holiga keltirishdir.

Umumlashtirish - tadqiqot olib borilayotgan bir qancha predmet yoki hodisalarga xos bo'lgan tomonlari, xususiyatlari va xossalari fikrda e'tibordan soqit qilib, tadqiqot uchun zarur bo'lgan birorta belgi yoki xususiyatni mavhum holatga keltirishdir.

Konkretlashtirish - oldingi butun belgi va xususiyatlarni yana predmet yoki hodisalar bilan bog'lab shu predmet yoki hodisa haqida aniq bir fikr hosil qilishdir.

Induksiya - tadqiqotchi o'z tafakkuridan tekshirayotgan predmet yoki hodisalar to'g'risidagi bir qancha juz'iy faktlardan, ular haqidagi ayrim bilimlardan umumiyoq bilimni hosil qiladi.

Deduksiya - fikrda umumiylardan juz'iy, qisman bilimlarda kelishdir.

Tarixiylik - o'rganilayotgan predmet yoki hodisaning paydo bo'lish, rivojlanish va yemirilish jarayonlari birligini uning tarixiy taraqqiyot jarayonida boshqa voqealar bilan aloqadorligini nazariy bilishga oid usuldir.

Mantiqiylik - tarixiylikning tadqiqotchi fikridagi umumlashtirilgan, abstraktlashtirilgan, konkretlashtirilgan, qisqargan, tasodiflardan tozalangan abstrakt-konkretlik shaklida ifodalananishdir.

Formallashtirish - tekshirilayotgan predmet yoki hodisalarning ma'lum konkret tomonlari, xossa va xususiyatlarining mazmunini mavhumlashtirib, uni ma'lum abstrakt ifoda, formula yoki sxemalar bilan ifodalashdir.

Modellashtirish - o'rganilayotgan ob'ektga tuzilishi yoki funksiyasiga ko'ra unga o'xshash lekin uning o'zi emas, uning nusxasini yaratib, shu nusxa orqali haqiqiy ob'ektning tegishli xossa va xususiyatlarini o'rganishdir.

Model - lotincha - nusxa - shartli obraz, sxema ma'nolarini bildiradi.

Foya - tadqiqot maqsadini, uning yo'nalishi va mohiyatini ifodalaydigan ilmiy bilish shaklidir.

Gipoteza - tekshirilayotgan predmet yoki hodisa to'g'risida ilgari surilgan ilmiy jihatdan asoslangan, ilmiy fakt va ma'lumotlarga zid bo'lмаган, lekin haqiqatligi hali isbotlanmagan ilmiy bilish shaklidir.

Nazariya - haqiqatligi amaliy va nazariy jihatdan isbotlangan, borliqning biror sohasiga oid ma'lum g'oyalar, qarashlar, qonunlar va prinsiplarni muayyan tizimi tushuniladi.

Jamiyat - arabchadan umumiylardan demakdir. Tabiatning bir qismi, borliqning alohida shaklini ifodalaydigan falsafiy tushuncha; odamlar uyushmasining maxsus shakli, kishilar o'rtasida amal qilinadigan ko'plab munosabatlar majmuasi. Jamiyat o'zida moddiylik va ma'naviylikni, ob'ektivlik va sub'ektivlikni, tabiiylik va ijtimoiylikni mujassamlashtiradi.

Sosiologiya - lotincha *societas* - jamiyat, Iogos ta'limot demakdir. Jamiyat to'g'risida, ijtimoiy munosabatlar sosial uyushmalarning rivojlanish va amal kilish qonunlari to'g'risidagi fan. Ogyust Kont tomonidan sosiologiya faniga asos solindi va atama ilmiy muomalaga kiritildi.

Barqarorlik - ichki va tashqi jarayon va tahdidlar natijasida vujudga keladi. Barqarorlik bir ijtimoiy-siyosiy tuzumdan boshqa bir ijtimoiy-siyosiy tuzumga o'tish davrida keskinlanishi mumkin. Jamiat barkaroligining izdan chiqishi kishilar psixologiyasidagi salbiy o'zgarishlarda, qonunlarning ishlamasligida, ijtimoiy burchning ado etilmasligida, ijtimoiy ideallarning yo'qolishida, g'oya va mafkuraga loqaydlikning kuchayishida, turli jinoiy guruhlarning paydo bo'lishida, ijtimoiyadolat mezonlarining buzilishida, davlat idoralarining aholini boshqarish qobiliyati kuchsizlanishida, turli ziddiyatlarining keskinlashuvida o'z ifodasini topadi.

Inson - har qanday falsafiy ta'limotning asosini tashkil etuvchi fundamental falsafiy kategoriya. Boshqa biologik mavjudotlardan xotirasi, tafakkuri, tili, amaliy faoliyati, ongi bilan ajralib turadi.

Antropologiya - yunoncha anthropos - odam va logos ta'limot demakdir. Odamning paydo bo'lishi va evolyusiyasi, odam irklari haqidagi fan. Antropologiya odam tana tuzilishi, kishilar o'rtasidagi salbiy farklarni o'rganish asosida ish ko'radi. Ilmiy antropologiya mustakil fan sifatida 19 asrda shakllangan.

Shaxs - o'zida sosial sifatlarni mujassamlashtirilgan insonni ifoda etadi. Kishilar shaxs bo'lib tugilmaydi, balki jamiyatdagina shaxs bo'lib shakllanadi va rivojlanadi. Chunki insonga xos ijtimoiy sifatlar, fazilatlar avloddan-avlodga irlsiyo'1 bilan o'tmaydi.

"Jadid" - yangi, yangilikka intiluvchi bu harakat Turkistonda XIX asr oxirlaridan vujudga kelgan. Siyosiy oqim, siyosiy harakat sifatida 1905 yillardan boshlangan.

"Totalitar" - «Yalpi» - siyosiy boshqaruvsda yagona partiya, yagona ma'muriy-buyruqbozlik tizimining shakli.

"Suverenitet" - «Daxlsiz»- davlatning o'z ichki va tashqi siyosatida mustaqilligini bildiruvchi atama.

"O'zbek modeli" - mamlakatimizni har jihatdan taraqqiy ettirishni ko'zlab, fuqarolarning taqdirinigina emas, balki kelajak avlodlarining taqdirini ham o'ylab, rivojlangan davlatlar darajasiga chiqishni ko'zda tutib, Prezident I.Karimov tomonidan nazariy va amaliy jihatdan puxta ishlab chiqilgan taraqqiyot yo'li.

"Konstitusiya" - davlatning bosh qomusi.

"Parlament" - Qonun chiqaruvchi organ. O'zbekiston parlamenti ikki palata: Qonunchilik palatasi va Senatdan iborat.

"Ombudsman" - inson huquqlari bo'yicha Oliy Majlisning vakolatli instituti.

Referendum - umumxalq ovoz berishi.

Parlament - «Gapirmoq»- qonun chiqaruvchi oliy organ.

Fundamental - asosli, mustahkam.

Sivilizasiya - jamiat taraqqiyotining sifat jihatdan yangi bosqichi.

Avesto - Zardushtiylik dinining muqaddas kitobi, asosiy matn degani.

Zardusht - inson nomi, ma'nosi sariq tuya yetaklagan degani.

Reformator - islohotchi.

Monoteizm - yakkaxudolik.

Metodologiya - uslublar haqidagi ta'limot.

Renessans - uyg'onish.

Algoritm - Al Xorazmiy so'zining lotincha talaffuzi.

Kompleks - birlashtirilgan, umumlashgan, yig'ilgan.